

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

O‘ZBEK TILI UNI O‘QITISH
USLUBIYATI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
v.b. _____ f.f.n. Sh.Haydarov
“ _____ ” _____ 2013 yil

5141100 - o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

Norqulova Rayhon Umrzoqovnaning

**“Oybek asarlarining lingvostilistik tahlili” (“Bolalik”,
“Quyosh qoraymas” asarlari misolida).”**
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: f.f.n. Haydarov Sh.

Taqrizchi: dots. Fayzullayev B.

BMI O‘ZBEK TILII VA UNI O‘QITISH USLUBIYATI
kafedrasi yig‘ilishining (qaror №10, 15.05.2013)
qarori bilan himoyaga tavsiya etilgan.
Kafedra mudiri _____ p.f.n.Yadgarov Q.

Jizzax-2013

“Oybek asarlarining lingvostilistik tahlili” (“Bolalik”, “Quyosh qoraymas“ asarlari misolida).

Reja:

Kirish. BMTning umumiy tavsifi.

Ibob. Oybek asarlarining badiiy uslub individualligini ta’minlovchi vositalar.

1.1. Fonetik vositalar

1.2. Leksik vositalar

II bob. Oybek asarlarining lingvostilistik xususiyatlari

2.1. „Bolalik“ asari misolida

2.2 „Quyosh qoraymas“ asari misolida

III bob. Ishning amaliyotga tadbiqu

3.1. Ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida Oybek ijodi

3.2. Ochiq dars ishlanmasi.

Xulosa.

M U N D A R I J A

Kirish.	3-7
Ibob. Oybek asarlarining badiiy uslub individualligini ta'minlovchi vositalar.	8-23
1.1. Fonetik vositalar.	9-12
1.2. Leksik vositalar.	12-23
II bob. Oybek asarlarining lingvostilistik xususiyatlari. .	24-
2.1. „Bolalik“ asari misolida.	24-29
2.2. „Quyosh qoraymas“ asari misolida.	30-52
III bob. Ishning amaliyotga tadbiqu.	53-63
3.1. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida Oybek ijodi. .	53-54
3.2. Ochiq dars ishlanmasi.	54-60
Xulosa.	61-62
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	63-64

KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimov „Kadrlar tayyorlash milliy modeli haqida“ gapirayotib, “Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri har xil “tizim”lardan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo‘lgan insonlarga fuqarolik jamiyatini barpo etishga va yanada takomillashtirishga qodir bo‘ladi”¹ deb ta’kidlagan edi.

Mamlakatimiz o‘quv yurtlari, ziyolilari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa kadrlarning yangi avlodini shakllantirish bo‘lib, bu avlodni zamonaviy bilimlar vositasida, demokratik ruhda tarbiyalashda fanning, ilmiy mushohada taraqqiyotining roli alohidadir.

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik davrida yuzaga kelgan ijtimoiy muhit o‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti uchun ham yetarli sharoit yaratadi. Ushbu fan ijtimoiy va madaniy hayotning turli sohalarini rivojlantirishga tadbiq etiladigan o‘ziga xos amaliy ko‘rsatmalar yaratish ma’suliyatini oladi. Tilshunoslik fanining ajralmas qismi bo‘lgan uslubshunoslik ham yangicha yo‘nalish kasb etmoqda. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta’kidlaganlaridek, “Har kimsaki nutqi farovon bo‘lmas, til ranjiga qilmoqligi imkon bo‘lmas”. Nutqning ravonligi, uning ta’sirchanligi inson ijtimoiy faoliyatida ijobiy natijalarga erishishining muhim omilidir. Nutqning farovonligini ta’minlovchi vositalarning tahlili bilan shug‘ullanuvchi fan stilistikaning oldiga o‘zbek madaniy, adabiy merosining nodir na’munalarini, qaytadan, yangidan shakllanayotgan metodologiya nuqtai nazaridan tadqiq etish talab etilmoqda.

Keyingi yillarda mazkur sohada yaratilgan qator tadqiqotlar (A. Shomaqsudov, N.Mahmudov, Q.Samadov, E.Qilichov, Yo. Tojiyev, A. Sabriddinov, M. Yo‘ldoshev kabilar) aynan shu talablarga javob beradi.

¹ Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkursi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin, Barkamol avlod orzusi. T.:Sharq 1994, 43-bet.

Yetuk soʻz sanʼatkori Oybek asarlari matnining lingvostilistik tabiati, uslubiy tarkibi va badiiy mazmun ifoda qilish imkoniyatlarini oʻrganish muhim ilmiy muammo koʻrinishiga ega. Zero mualliflikka xos lisoniy faoliyatini shakllantiruvchi uslub, til vositalarining adib ideolikti (til boyligi doirasi) qonuniyatlariga mos holda nutqda faollashuvni tahlil qilish va yoritish shaxs nutqiy tafakkur qobiliyatining namoyon boʻlish mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

Oʻzbek tilshunosligida Oybek ijodining til xususiyatlari oʻrganilgan tadqiqotlar mavjud, ammo yozuvchi asarlarining matnini lingvostilistik tahlili borasida hali bajarilishi lozim boʻlgan ishlar koʻlami, keng, uning oʻzbek adabiy tili taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi va ijodiy uslubning oʻziga xos belgilarini aniqlash masalasi oʻz dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Ayniqsa, Oybek uslubini inson lisoniy qobiliyatining nutqiy faoliyatda, mualliflik matnlarida namoyon boʻlish xususiyatlari bilan qiziqayotgan zamonaviy lingvistik yoʻnalishlar boʻlgan “shaxs va til” (Y.N.Karaulov, E.S.Kubryakova) va kommunikativ faoliyat matni (A.S.Suprun) kabi yoʻnalishlar nuqtai nazaridan tadqiq qilish zarurati bor. Hozirgi paytda uslubiyat nazariyasi turli yoʻnalishlarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida tilning stilistik belgiga ega boʻlgan birliklariga xos struktura, maʼno va vazifaviy xususiyatlar toʻgʻrisida koʻp miqdordagi maʼlumotlarga ega boʻlgani holda, ushbu maʼlumotlarni umumlashtirish va umumiy kommunikativ –kognitiv tilshunoslik doirasida uslubshunoslikning qator muammolarini yechish imkonini berishga qodir boʻladigan yangicha yondashuv, yangicha konsepsiyalar yaratish bosqichiga qadam qoʻydi”²

Bu oʻz navbatida badiiy asarlar matnlari lingvostilistik individual belgilarini aniqlash borasida tadqiqotlar olib borishning dolzarb va muhimligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Mavzuning oʻrganilish darajasi: Mazkur bitiruv malakaviy ishi Oybek ijodiy merosining katta qismini tashkil etgan prozaik asarlarining tili va uslubi xususiyatlarini umumfilologik nuqtai nazardan baholab, yozuvchi materialining oʻziga xos qirralarini til materiali asosida ochib berishga qaratilgan.

² Samadov Q. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi.

To'g'ri, o'zbek tilshunosligida Oybek ijodining til xususiyatlari o'rganilgan tadqiqotlar mavjud.³ Ammo o'zbek tili va adabiyoti taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan. Oybekdek ulkan so'z san'atkorining ijodiy merosini birgina bitiruv malakaviy ishi doirasida tadqiq etish bilan chegaralanib qolish qanoatlanarli emas. Buning ustiga, Qarshiboy Samadov tomonidan olib borilgan kuzatishning amalga oshirilganligiga 41yil vaqt o'tdi. O'tgan davr mobaynida xalqimiz tarixida misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi xalqimizning ulkan tarixiy g'alabasi va yutug'i bo'ldi.

Binobarin, o'tmishimizga, tarixiy, ilmiy va badiiy merosimizga qaytadan nazar tashlab, uni mustaqilligimiz prizmasida talqin qilib, bu ulkan merosni bugungi va ertangi kunimizga xizmat qildirish milliy istiqlool g'oyasini amalga oshirishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Shunday ekan, 60-yillarda boshlangan Oybek asarlarining til xususiyatlarini tadqiq etishni davom ettirish, shu aspektda uning o'zbek tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga aniqliklar kiritish va ijodiy uslubini ana shu til materialini asosida ko'rsatib berish o'z dolzarbligini yo'qotgan emas. Shu ma'noda mazkur bitiruv malakaviy ishi Oybekshunoslikka qo'shilgan alohida hissa sifatida qaraladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari: Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi Oybek prozasi lingvistik materialining tanlanishini, o'ziga xos jihatlarini uning uslubi nuqtai nazaridan, ayrim zamondoshlari ijodi bilan qisman qiyoslagan holda talqin etishdan iborat. Bundan quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

1.Oybek ijod qilgan davr hamda adibning o'z uslubiga xos bo'lgan lingvistik materialini aniqlash.

2.Badiiy asar uchun tanlangan mavzu, unda aks etgan davr va voqea hodisalarning yozuvchi ijodiy uslubi shakllanishiga ta'sirini belgilash.

³ Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: Автореф. Дес. канд. филолог. наук-Ташкент,1967-24с.; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи, филол.фанлари ном... дис. Автореф. Самарқанд, 2004, Б-23.

3.Yozuvchi prozaik asarlari matni tuzilishida muhim o‘rin egallagan til birliklarining vazifaviy va ma’no xususiyatlarini o‘rganish.

4.Matnning badiiylik va estetik jihatdan shakllanishida qo‘llanilgan lug‘aviy birliklar guruhlarning o‘rnini aniqlash va shu yo‘sinda yozuvchi ideoliktining lug‘at qatlamini aniqlash.

Rejaga muvofiqligi. Bitiruv malakaviy ishi matni kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tahlil metodlarining ilmiy nazariy asoslanganligi, tadqiqot muammosini tanlashdan maqsad, qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish yo‘llari belgilab olinib, muhokama uchun taqdim qilinayotgan fikrlar keltirilgan.

Birinchi bobda Oybek asarlarining badiiy uslub individualligini ta’minlovchi vositalar ya’ni leksik hamda fonetik vositalar aniqlangan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida ”Bolalik” hamda ”Quyosh qoraymas” asarlarining lingvostilistik xususiyatlari ko‘rib chiqilgan.

Ishning uchinchi bobida yozilayotgan bitiruv malakaviy ishining amaliyotga tadbiqui ya’ni ta’lim bosqichlari dastur va darsliklarida Oybek ijodi hamda bir soatlik ochiq dars ishlanmasidan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishining ob’ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishimizning ob’ekti sifatida Oybek prozaik asarlaridan ”Quyosh qoraymas” hamda ”Bolalik” tanlandi. Ushbu matnlar tahlili adibning individual uslubiy xususiyatlari, uning til birliklaridan foydalanish mahoratini yoritish imkonini beradi. Yozuvchi prozasi matnlarining lingvostilistik tarkibi shakllanishida foydalanilgan leksik va tasviriy vosita birliklarning strukturaviy va mazmunan vazifaviy tahlili ishning predmeti qilib belgilanadi.

Badiiy matnning tarkib topishi va mavjud bo‘lishida yagona bir butunlikni tashkil etuvchi mazmun doirasi va shakl ko‘rinishlari turli asosga ega bo‘ladi: mazmun butunligi voqelikdagi hodisani to‘liq aks ettirish maqsadi bilan bog‘liq bo‘lsa shakl ushbu mazmunni lisonoy faoliyat jarayonida bayon etish uchun xizmat qiluvchi lisoniy belgilar tuzilmasidir. Demak, matn shakliy tuzilishi jihatidan ikki qobiqli hodisa sifatida qaralishi lozim, chunki unda janr va uslub shakllari birikadi.

Bunda janr umumiy shaklning ob'ektiv asosini yaratsa, uslub uning sub'ektiv tomonini yuzaga keltiradi.

Uslub matnning xarakterchan, o'zgaruvchan xususiyatini ta'minlaydi. Bu o'zgaruvchanlik nutq sub'ekti, holati o'zgarishining aksidir. Janr ham albatta, matn uslubiy xususiyatlarining shakllanishida ishtirok etadi. Masalan, biror bir badiiy asarning janriga xos uslub haqida gapirmoqchi bo'lsak, so'zsiz, ushbu asarlarning boshqa shu janrdagi asarlar uchun umumiy ko'rsatkichlarini eslaymiz, uning shu qatordagi asarlar orasida tutgan o'rnini e'tiborga olamiz. Asarning sub'ekti muallif bilan bog'liq uslubiy belgilari esa "ichki" uslubga oiddir va bu uslub ko'proq xususiylikka intiladi. Xususiylik, yagonalik ijod jarayonida muallifning til birliklarini tanlash faoliyati natijasida hosil bo'ladigan matn ko'rsatkichidir.

Ijodkorning o'zbek tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasi haqidagi qarashlarni to'ldirish, ayrim o'rinlarga aniqliklar kiritish, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati alohida bir muallif ijodi misolida proza janrida til vositalarining tanlanish va amal qilishning o'ziga xos jihatlarini hamda bu vositalarning leksik va uslubiy imkonoyatlarini aniqlashdan iborat.

Kuzatish natijalaridan barkamol avlod tarbiyasida, xususan, oliy o'quv yurtlarida filolog mutaxassis kadrlar tayyorlashda foydalanish amaliy ahamiyatini tashkil etadi. Bu ish materiallari va unda qilingan xulosalardan leksikologiya va uslubshunoslik bo'yicha nazariy kurslar, seminar mashg'ulotlari o'tishda, o'zbek tilining, ayni paytda Oybek ijodiy merosining izohli lug'atlarini yaratishda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot metodi va manbai. Ishda semantik-uslubiy, qiyosiy hamda leksikografik metodlardan foydalanildi. Adibning prozaik merosi tadqiqot manbai vazifasini o'tadi.

I bob. Oybek asarlarining badiiy uslub individualligini ta'minlovchi vositalar

Ulkan soʻz sanʼatkori Oybek yaratgan boy badiiy merosni umumfilologik yoʻnalishda tahlil etish bu asarlar yuzaga kelgan paytlardanoq tadqiqotchilarning diqqatini oʻziga tortib kelgan. Shu paytga qadar bir necha doktorlik va nomzodlik dissertasiyalari yozilgan, alohida monografiyalar nashr etilgan boʻlishiga qaramasdan, bu qiziqish hozirda ham soʻngan emas. Buning sabablarini obrazli tarzda ifodalaydigan boʻlsak, Oybekning ijodiy merosi ona tilimiz boyliklarini mujassam qilgan javohirlarga oʻxshab, oʻqiganing sari uning yangi-yangi qirralari kashf etilavergani, tilimizning hikmatlari va qudrati oʻzining yangi jilolari va jilvalari bilan namoyon boʻlavergani uchun ham shundaydir.

Oybek badiiy matnini tadqiq etishdagi asosiy yoʻnalishlardan biri tilshunoslikka oid boʻlib, shu paytga qadar yaratilgan tadqiqotlar badiiy mahorat va lingvostilistik nuqtai nazardan salmoqli oʻrinni egallaydi.

Individual uslubni oʻrganish asar matnini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan batafsil tahlil qilish hamda yozuvchining xususiy lisoniy faoliyatini aniqlash uchun muhimdir. Bu turdagi tahlil har bir muallifning til tizimidan foydalanish uslubini aniqlash, uning asar gʻoyaviy mazmunini yoritishda, voqelikni badiiy bayon qilishda til vositalarini qoʻllash mahoratini oʻrganish uchun xizmat qiladi.

Shaxsning tildan foydalanish mahorati zahirida uning ideolekti, yaʼni xususiy lisoniy faoliyat zahirasi yotadi. Ideolekt u yoki bu shaxsning, yozuvchining individual til xususiyatlari yigʻindisini umumlashtiradi.

Yozuvchining shaxsiy ijod erkinligi hamda tildan foydalanish mahorati uning ideolektiga bogʻliqligi barobarida personajlar nutqini haqqoniy va taʼsirchan holda tasvirlashiga ham bogʻliq. Bu hol har bir yozuvchining shaxsiy manerasi hisoblanadi, albatta. Ijodkorlar tildan foydalanishda oʻz tanlagan, oʻzi uchun maqbul deb bilgan uslubdan foydalanadilar. Ijodkor buyuk soʻz sanʼatkori Oybek ham oʻz asarlarini yaratishda oʻzining oʻtkir quroli sanalgan soʻzdan oqilona,

mohirona foydalanganki, har bir soʻz, har bir ibora, har bir leksik va sintaktik birlik asarda oʻz qimmatiga ega.

1.1 Fonetik vositalar.

Oybek asarlari tahlilida uchraydigan fonetik hodisalar unli yoki undoshlarning almashinishi, tushib qolishi, orttirilishi kabi bir necha hodisalarga duch kelamiz.

Birgina uning “Bolalik” asarini oladigan boʻlsak, unda uchraydigan, reduksiya, spirantizatsiya, sinkopa, epinteza, assimillatsiya kabi bir qator fonetik hodisalarni ham uchratishimiz mumkin. Masalan, *Tor koʻchada, qoʻshnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol bobom oʻz oʻrtogʻi uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq moʻysafid bilan nimalar toʻgʻrisidadir ezmalanib soʻzlashadi*(Oybek. Bolalik. Toshkent: Oʻqituvch nash 1979 y. Misollar ana shu manbadan olinadi va bundan keyin uning sahifalari koʻrsatib boriladi). Bu gapda spirantizatsiya hodisasi yuz bergan boʻlib eshik soʻzidagi **k** jarangsiz undoshi **g** jarangli undoshiga almashgan. Oʻrtoq soʻzidagi **q** jarangsiz undoshi **gʻ** jarangli undoshiga almashgan. Bu hodisani badiiy matn tarkibidagi yaʼni Oybekning “Bolalik” asaridagi koʻplab gaplar tarkibida uchratishimiz mumkin. Misol uchun ular quyidagilar: *Bobom oʻsiq qoshlari tagida yashiringan koʻzlarini yolgʻondaka olaytirib koʻrsatkich barmogʻi bilan poʻpisa qiladi, men hassalarini tixirlik bilan egalariga qaytaraman*” (Oybek. Bolalik. 3-bet); *Ayvonda doʻppi tikib oʻtirgan onam buvimning tovushini eshitib, undan noxushlanganday qovogʻini solib yana qatim tortaveradi. U moʻmin maʼqul kelinlardan boʻlgani uchun buvimning chizigʻidan chiqmaydi* (Oybek. Bolalik. 5-bet); Yuqoridagi parchalarda *barmoq, qovoq chiziq* soʻzlaridagi **q** jarangsiz undoshi **gʻ** jarangli undoshiga aylangan boʻlsa, *Bolalar, yigitchalar yigʻilishadi. Qiy-chuv... qoʻshnimiz kekirdagini choʻzib qishloqilarni soʻka boshlaydi.* (Oybek. Bolalik. 7-bet); *Ey oʻgʻlim, qilich shipqa osigʻliq, gʻalva qilma deydi yutalib va uzoq yoshligini tasavvur etganday bir lahza xayolga beriladi, keyin soʻzida davom etadi*(Oybek. Bolalik. 15-bet). Birinchi gapdagi kekirdak soʻzi spirantizatsiya hodisasiga uchragan boʻlib **k** jarangsiz portlovchi undoshi **g** jarangli portlovchi undoshiga almashgan. Ikkinchi misolda

uchta fonetik hodisa sodir bo'lgan bo'lib, birinchisi sperantizatsiya hodisasi **k** jarangsiz undoshining **g** jarangli portlovchi undoshiga aylanishi, ikkinchisi sinkopa-ya'ni so'z o'rtasidagi tovushning tushib qolishi. *O'g'il* so'zidagi **i** unlisining tushirilib qolishi bu yerda sinkopa hodisasini yuzaga keltirgan. Uchinchi fonetik hodisa epinteza bo'lib bunda **dedi** so'zi **deydi** shaklida fonetik hodisaga uchragan.

Men jimgina pochchamning og'ziga qarab o'tiraman. Ayniqsa uning o'siq qoshlarini sertomir bo'ynining qaltirashini tomog'idan choyni qult-qult o'tishini va chirik tishlari orasida qandning qusurlashini tomosho qilaman (Oybek. Bolalik. 16-bet).

Yuqoridagi misolda *og'iz*, *bo'yin* so'zlari sinkopa hodisasiga uchragan bo'lib, *og'ziga* va *bo'yniga* kabi shakllarida o'zgargan. So'zlar tarkibidagi tovushlarning grammatik shakllar qo'shilishi natijasida o'zgarishi ham matnning uslubiy xususiyatlarini qaysidir ma'noda o'zgartirish uchun xizmat qilgan. *Tomoq* so'zi esa sperantizatsiya hodisasi tufayli *tomog'* shaklida fonetik o'zgarishga uchragan. *U buzilgan binoning g'ish devorlari orqasidan sog' chiqar ekan, hammani nobut bo'lgan deb o'yladi. Yo'q o'n chog'li odam o'lgan undan ortiqrog'i yarador. Hamqishloqlaridan esa, yolg'iz Safar cho'tirning bir barmog'i yengil yarador bo'lgan edi* (Oybek. Quyosh qoraymas. 3-bet). Ushbu parchada *chog'li* so'zidagi **g'** jarangli undoshi sperantizatsiya hodisasi sababli **q** jarangsiz undoshiga almashgan. Bu holat *ortiqrog'*, *barmoq* so'zlarida ham kuzatiladi.

Bobom unga bir o'qrayadida, qizarib bo'kiradi: - ollo de, olloga sig'in! – keyin yumshoqroq tovush bilan: -Dard ko'p, davo yo'q... Eshonga qo'l ber, keksayib qolding qo'shiq senga chikora deydi. Bu gapda appokopa hodisasi yuz bergan, ya'ni «*olloh*» so'zi *ollo* dialektizmi tarzida ifodalangan bo'lib, lingvopoetikada muallif muayyan maqsadini oshkor etish uchun qaxramonlar nutqini buzib ifodalaydi. Misoldagi *dedi* so'zi esa epinteza hodisasiga uchrab *deydi* shaklida fonetik o'zgarishga uchragan.

Mo'min emish –a, bu bachchag'ar, lavashang otni tilini bilmaydi, haromi! –qichqirdi xo'jayin bolaga do'q qilib (Oybek. Bolalik. 95-bet). Ushbu

gapda assimilatsiya hodisasining to'liqsiz turi kuzatiladi, ya'ni bu *lapashang* so'zi *lavashang* tarzida o'zgarishi. Bu so'zda **p** undoshi **v** undoshiga moslashgan bo'lsa, *Aqcha masalasi xurjun, Krenskiyning puli arzimaydigan qog'oz juda kichkina manmunchagina –deydi u qo'li bilan ko'rsatib –aqcha degan basavlat bo'lishi kerak axir* (Oybek.Bolalik.196-bet) misoli tarkibida distant assimilatsiya yuz bergan. Distant assimilatsiya bu so'z tarkibida bir biridan uzoqroqda joylashgan tovushlarning o'zaro moslashuvi hisoblanadi. Matndan keltirilgan ushbu parchada ham yozuvchining muayyan maqsad bilan qahramonlar nutqidagi so'zlarni buzib ifodalashining guvohi bo'lamiz. Chunki asar matnining haqqoniyligi va ishonarli chiqishi uchun ham yozuvchi aynan shunday metoddan foydalangan bo'lishi tabiiy. Personaj tilidan keltirilgan parchada nutqning sofligiga e'tibor qaratilganda edi asar matnining ta'sir doirasi sezilarli tarzda susaygan bo'lardi.

Oybek mohir yozuvchi. U yaratgan asarlar kitobni sevuvchi, unga mehr qo'ygan har qanday kitoxon nazaridan chetda qolmaydi. Oybek asarlari o'zining soddaligi, xalq tilidan olib yozilganligi bilan adabiy merosimizda ajralib turadi. Uning "Quyosh qoraymas" asarini o'qir ekanmiz adibning so'zga ustaligini asar tilining o'ziga xosligi va boshqa yozuvchilar asarlarining til xususiyatlaridan jonli xalq tiliga bo'lgan yaqinligi bilan izohlash ham mumkin. Asar zamonaga mos holda, o'sha davr portretlari bilan yo'g'rilgan holda va asar qahramonlarining ruhiy kechinmalariga mos tarzda yaratilganligining o'zi ham yozuvchi mahoratini yana bir misolidir.

Asarda unli tovushlarning o'zgarishga uchraydigan bir qancha fonetik jarayonlar ham mavjud bo'lib, ularni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

Siyrak o'tkinchilar albatta qo'l qovushtirib Assalom deb o'tadilar. Chollardan biri yoki ikkovi birdan javob beradilar: Vaalaykum (Oybek. Bolalik. 3-bet). Bu gapda **i** unlisi fonetik hodisaga uchrab **o** lablangan orqa qator quyi keng unlisiga almashgan bo'lsa, *Har qadamda "xudo" deydi. "Senga topshirdim ,Tosh omon bo'lsin "deb yolg'iz o'g'lini qishloqdagi dadamni duo qiladi* gapi tarkibida o'g'il so'zidagi **i** unlisi sinkopa hodisasi tufayli tovushning tushib qolishi sodir bo'lgan. *Opam qoziqdan jildini olib bo'yniga osadida*

maktabga jo'naydi (Oybek. Bolalik. 78-bet). Gapida esa *bo'yin* so'zidagi **i** old qator ,yuqori tor, lablanmagan unlisi so'z o'rtasida tushib qolib sinkopa hodisasiga uchragan hamda bo'yni ko'rinishida ifodalangan.

Asar matnidan keltirilgan misollardan shunisi ayon bo'ladiki, fonetik hodisalar unli va undosh tovushlar tizimida birdek sodir bo'lishi mumkin. Bu hol ham yozuvchining uslub individualligini o'ziga xosligidan dalolat beradi.

1.2. Leksik vositalar

“Bolalik” asarida yozuvchining bolalik davri to'g'ri kelgan XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti, Toshkent hayoti hikoya qilinadi. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchidan, Oybek o'zi tug'ilib o'sgan muhit kartinalarini chizadi. Shuning uchun unda ham shahar, ham qishloq hayoti, bolalar o'yinlari, ota-onalari va boshqa yaqinlari mashg'ul bo'lgan kosibchilik mashg'ulotlari hikoya qilingan. Binobarin, ana shu hayotni ifoda etuvchi so'zlar va atamalar keng o'rin olganligi uchun ham “Bolalik” qissasining tili Oybekning boshqa asarlaridan farqlanadi (Oybek. Bolalik.-Toshkent: O'qituvchi, 1979. Misollar ana shu manbadan olinadi va bundan keyin uning sahifalari ko'rsatib boriladi). Buning sabablari, eng avvalo, unda hikoya qilinayotgan odamlar hayoti, voqealar, joylar bilan bog'liq. Asar avtobiografik xarakterda bo'lgani tufayli tasvir etilayotgan voqealar yosh Musoning oilasi, oiladagi yaqin kishilari, qarindosh urug'lari, mahalladoshlari, tanish-bilishlari, birga o'qiydigan va o'ynaydigan jo'ralar hayoti, ular yashaydigan, umrguzaronlik, tirikchilik qiladigan Toshkent dahalari, guzarlari, mahallalari, bozorlari, ko'chalari, atrof qishloqlar, ularda yashaydigan kishilar va ularning kasbi bilan bog'liq so'zlar, iboralar, maqollar asosiga qurilgan.

Bolalarning o'sha paytdagi, hozir ham qishloq bolalari hayotida qisman saqlanib qolgan o'yinlarini anglatuvchi *oshiq* (17,53), *chillak* (17), *tol ot* (17), *yong'oq* (33), *quroq* (44), *quchqor* (52), *soqqa* (53), *achipta* (53), *arg'imchoq* (55), *do'ngalak* (55), *qushim boshi*_(101,149), *kepak-kepak*_(149,173), *safar qochdi*_(151); turli xizmat va kosibchilikka aloqador *xalfa* (23), *shogird* (23), *kosib* (232), *so'kfurush* (16), *bo'zchi* (39), *mahsido'z* (39), *baqqol* (39),

sag‘rifurush (112), *nosvoychi* (195), *qarol* (206), *chorakor* (243), *do‘ppifurush* (219), *yamoqchi* (219), *chegachi* (220,232), *miskar* (232), *tunukasoz* (232), *shon* (10,120), *qolip* (10), *gazan* (11), *shirach* (11), *ko‘va* (11), *saxtiyon* (16), *tanda* (7,45), turli xil ish qurollari, kiyim-kechaklar, buyumlar nomi bo‘lgan *kepchik* (134), *egar* (191), *gazmol* (197), *qalpoq* (200), *yaktak* (200), *kamzul* (200), *lampa shisha* (201), *lachak* (201), *durracha* (202), *xatcho‘p* (120), *zarang* (23), *yalang to‘n* (221), *kashkul* (219), *kuloh* (219), *ishpech* (231), *peshmat* (110), *popuk* (4,17), *shokila* (17), *namat* (204), *o‘tov* (204), *keraga* (204) kabi o‘nlab so‘zlar bu fikrni tasdiqlaydi. Bolalarga nisbatan ishlatilgan *huvari* (4,8,17), cho‘qmor ma’nosidagi tarixiy *shashpar* (8), eshik tepasidagi tokcha ma’nosidagi *piramon* (8), kasallikni bildiruvchi *no‘xala* (194), oziq-ovqatni ifodalovchi *qumron* (28), *ot-non* (63,64), *rusta* (4), ro‘za paytlari kechqurun bo‘ladigan bozorni anglatuvchi *bozorshab* (168) singari sozlar ham aytilganlarni to‘ldiradi.

Garchi «Bolalik» qissasi Oybek ijodining qiyomiga yetgan bir davrida yozilgan bo‘lsa-da, uning tili va bayon uslubi yozuvchining boshqa asarlaridan soddaligi bilan farqlanadi. O‘zining bolalik yillarini badiiy ifoda etishni niyat qilgan yozuvchi tasvirda tanlagan davrga mos sodda uslub bayonning tabiiy va jonli bo‘lishida asosiy o‘lchov bo‘lib xizmat qiladi. aylangan: *O‘yin yaxshi narsa. Men yuraman tentirab, erta ham, kech ham o‘ynaganim-o‘ynagan. O‘rtoqlarim juda-juda ko‘p: Qodir, A‘zam, Turg‘un, Ahmad, Hoji, Sobir... Qodir mo‘mingina ko‘rinadi, ammo jahli chiqsami, qo‘ymaydi, yoqalashib ketadi. Ahmad tentakroq, oshiqboz, juda kambag‘alki... Hojining otasi mardikor, bazo‘r kun kechiradi. Lekin quvgina kishi. O‘g‘li ham shundayroq. Sobir kichkinacha, pishiqqina. Mahallada bolalar ko‘p, lekin bir-biriga o‘xshamaydi* (31). Yana: *Bizga har narsa o‘yin: hali oshiq, hali arava o‘yin, hali chillak, hali ot bo‘lib chopish, Kim o‘zish. Bulardan zerikish yo‘q. Har kuni necha daf‘a qayta-qayta o‘ynaymiz* (32).

Shu bilan birga, Oybek o‘z uslubining ajralmas qismi bo‘lgan portret va peyzajning, ayrim ruhiy holatlarning ehtirosli tasviridan bu asarida ham voz kechgan emas. Kezi kelganda, oybekona ilhom bilan bunday chizgilarga berilib ketadi. Asarning 33,35,40,46,61-sahifalaridagi personajlar ruhiy holatlari va

yilning turli fasllari tasvirlari fikrimizga dalil bo'la oladi. Birgina misol: *Yana bahor. Daraxtlar sekin-sekin kurtaklana boshlagan. Kosiblar, ularning xalfa, shogirdlari bahorni ayniqsa yaxshi ko'radilar. Dehqonlar bo'lsa toqatsizlik bilan bahorga intizor.*

Bahor serzavq, rangdor fasl. Hali qarasangiz, tog'lardan karvon-karvon bulutlar keladi-da, yomg'ir sel bo'lib quyiladi, hali qarasangiz, darrov bulutlar tarqaladi, osmon oynaday musaffo bo'ladi. Kulgan quyoshdan olam yarqirab ketadi.

Garchi kam bo'lsa-da, «Kuchli chuvvos maktab xonasidan toshib, tashqarida yangraydi» (51), «Ko'ngilda chayqalgan hislardan entikmoq» (78), «Olovi ko'ksiga tiqilib turgan bir yonar tog'day Toshkent chayqalib ketadi, birdan g'azabi yoriladi» (177), «Osmondan nur seli yog'adi» (189) singari jonlantirish, so'zlarni metaforik va metonimik qo'llashlar natijasida shakllangan hissiy ifodalar majmui ham asar jozibadorligining oshishini ta'minlagan.

Oybek uslubiga xos portret tasviri «Bolalik»da ham uchraydi: *Kichkina, siniq ko'zli deraza tagida, beti yoyilib silliqlangan qalin «to'nka» - kunda yonida charm kesib o'tirgan bobom – yumaloq boshli, keng yuzli, toza, oq soqolli, to'la, sersavlat chol – qalin lablarini jo'rttaga qavartirib: «Bo'b - bo'-bo'b... Aylanay shirintoydan» deydi (10).*

Fasllar manzarasini chizishda Oybekning betakror yo'li bor:

Qahraton qish... Izg'irin, shamol... g'arch-g'urch qalin qor...Quyosh goh-goh bir ko'rinib qo'yadi. Biz ayvondan uyga ko'chib olganmiz. Kabutarlar, chumchuqlar va musichalar patlarini hurpaytirib, sovuqdan titrab och parishon tentiraydi. Ularga achinaman-da, maydalab, hovuch-hovuch nonni to'kaman. Ba'zan tunda sovuqdan qotib o'lgan bir chumchuqni yoki musichani buvim avaylab devorning tagiga ko'mib qo'yadi (40).

Bahor tasviri: *Bahor keladi. Birin-ketin o'riklar, shaftolilar, olcha-olxo'rilar, bahor ishq bilan bovar, xilma-xil nafis gullarga tantana ila burkanmoqda. Daraxtlarning bunday fusunkor gullari, ko'm-ko'k mayin yaproqlari ruhlarni ko'taradi, zavqlarni chayqaydi (44).*

Ayni paytda Oybek o'z tasvir uslubiga xos bo'lgan lirizmni ham chetlab o'ta olmaydi: *Osmondan qorning quyilishini, daraxtlarning momiqday qor ko'mgan nozik novdalarini uzoq tomosha qilib yotaman. Buvim joynamoz ustida tasbeh o'girib o'tiribdi, ammo burishiq yuzidagi ko'tarinki ruh uning ham xayolxonasida uzoq umrining hayajonli xotiralari mavj urganini ko'rsatar edi.*

«Bolalik»da personajlar nutqining tabiiy bo'lishiga xizmat qilgan so'zlashuv tili va dialektal elementlar ham, ko'p bo'lmasa-da, uchraydi: *E, tavba! Sho'tdamisan?* deydi Qosim aka yoqasini ushlab (193), - *E, mulla aka, qatdan oldingiz bu kitobni?* so'rayman ergashib (246), - *Lekin **hazir bo'l**, qadamingni to'g'ri bos, bo'lmasa chirpirak qilib qamatib yuboraman!..*(217), - *Assalomu alaykum, **o'tog'asi!** – deb salom berishadi ular dadamni ko'rib* (198), - *Kel, **chirog'im** o'tir. Bo'za ich, deydi siyrak soqolli savlatli bir chol* (199), *Eshikdan **jengasha** bir lagan beshbarmoq ko'tarib kiradi* (204), *Bir cho'pon cholning oldida to'xtayman: - Assalom **jeka!** (205), - **O'ybayov**, bor. Kelib turadi, chiroq* (205).

«Bolalik»da qarg'ishlar ham bor: -***Bo'yning cho'zilmagur**, deydi kampir: - nonni otting-a, uvol... Itga xudoyim suyakni chiqargan* (12), - ***Ko'r bo'lib ketmagur!** ranjiydi onam. – Zig'irdaysan, o'zingdan kattalarga ergashasan, bular uzoqqa ketyapti* (13), - *Otang dalada, qandoq qilay, **yer yutmagur**, menga oson tutma!.. – deydi onam va orqamdan yana nimalardir deb qoladi.* (214), - ***Daydi o'lmagur**, qayoqda qolding? – so'raydi buvim* (230). Bularni qarg'ishdan ham ko'ra koyish deyilsa, to'g'ri bo'ladi. Bu koyishlar yordamida koyish bilan babbaravar onalik mehri ham bo'rtib turadi. Sharq, shu bilan birga, o'zbek ayollariga xos odob, farzandlariga mehribonlik ohangi seziladi.

«Bolalik»da Oybek qo'llagan xalq maqollari asardan personajlar hayoti bilan bog'liq bo'lgan maishiy va an'anaviy xarakterdagi iboralardir: ***pul bo'lsa, changalda sho'rva*** (30,133), ***eti sizniki, suyagi bizniki*** (50), ***tuya ko'rdingmi – yo'q, biya ko'rdingmi – yo'q*** (75), ***yo'l azobi – go'r azobi*** (82), ***yotsang yovga yoqar*** (103), ***sabr tubi – sari oltin*** (132), ***chiqmagan jondan umid*** (145), ***tengini topsang – tekin ber*** (153), ***uzoqning donidan yaqinning somoni yaxshi*** (153),

kengashli to'y buzilmas (153), *darding bo'lsa bo'lsin, qarzing bo'lmasin* (155), *yurgan yo'ldan topadi, o'tirgan qaydan topadi* (156), *tan sog'lik – tuman boylik* (158), *qanoat qorin to'ydiradi* (167,169), *boshga kelganni ko'z ko'radi* (180), *ko'za kunda sinmaydi kunida sinadi* (220), *bir yigitga qirq hunar ham oz* (234), *hunardan unar* (234), *hunar – xazina* (234).

Maqollarning barchasi oddiy xalq ruhiga mos bo'lib, ular ko'pincha keksalar, asosan asar qahramoni Musoning bobosi va buvisi tilidan aytilgan.

Frazeologizmlarni qo'llashda ham alohida munosabatdan ko'ra an'anaviylik, tilda mavjud variantlarga murojaat qilish ko'proq seziladi. Mana *Navoiyni, Hofizni biram o'qiydiki, sel qilib yuboradi* (32), *Ularning tili bir, bir yoqadan bosh chiqarganlar* (147), *-Qilning ustida turipti hammasi:-javob beradi onam xo'rsinib* (175), *-Mo'm tishlab o'tirasanmi! Gapir!* (215), *-Pashshalarga yem bo'lib o'tiravering! – deydi kinoyali tovush bilan Turg'un* (220).

Oybek epitetlari badiiylikdan ko'ra ko'proq realistik obraz yaratishga xizmat qilgan ko'rinadi: *jing'il hassa* /13/, *saxtiyon mahsi* /16/, *qora sho'rva* /20,28/, *yovg'on xo'rda* /38/, *gardin piyola* /129/, *sag'ri kovush* /3/ kabi. Ba'zi o'rinlarda epitetlarni qo'llash muvaffaqiyatli chiqmagan: *Tor ko'chada, qo'shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol bobom o'z o'rtog'i – uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq mo'ysafid bilan nimalar to'g'risidadir ezmalanib so'zlashadi* /3/. Ammo quyidagi gapda *isimlik* so'zini *istarasi issiq* ma'nosida original qo'llagan: *G'affor akaning xotini Rohat kelinoyi oppoqqina, ko'zlari o'ynoqi, isimlikkina juvon* /39/.

Oybek uchun qorning rangi emas, muloyimligi muhim. Shuning uchun daraxt novdalariga yopishgan qorni ham «*momiq qor*» deb ataydi.

Xuddi epitetlar singari o'xshatishlarni qo'llashda ham tasvirning aniq, ifodaning tushunarli, kitobxonbop bo'lishiga harakat qilingani seziladi: *yosh bolaning gapirishi to'tining g'ujillashiga, olmaning kichikligi yong'oqqa* /4/, *qor mayinligi momiqqa* /35/ kabi. Shu bilan birga asarda noan'anaviy, Oybek qalami mahsuli bo'lgan o'xshatishlar ham anchagina. Masalan: *Qing'ir-qiyshiq ko'cha ular uchun go'yo sichqonning qopqoniday bo'lganidan tiqilib qolishgan* /6/,

*Osilgan lablarida har yoqqa ko‘pik sachratib, boshlarini jahl bilan keskin silkitishadi, shunda bo‘yinlariga osig‘liq **qumg‘onday qo‘ng‘iroqlar** qattiq jaranglab ketadi /6/. –Lekin bir zamonlar xo‘p qilichbozlik qilganmiz. Tulpor otlarni osmonga sapchitib, qilich solardik. E-e, bu **qilich ham endi menday kekxa** /15/, Issiq baland. Cho‘l **simobday erigan** /89/.*

Izohli lug‘atlarda **qalin**, **zich**, **tig‘iz** sinonimik qatoridagi **qalin** so‘zi asosan narsa va predmetlarga, **zich** esa ham narsa-hodisalar, ham odamlarga nisbatan ishlatilishi qayd etilgan.⁴ Ammo Oybekda u, aksincha, insonlarga nisbatan **ko‘p** so‘zining sinonimi sifatida faol ishlatilgan va o‘ziga xoslikni keltirib chiqargan. «Bolalik»da o‘nga yaqin o‘rinda shu ma’noda keladi (24,63,70,75,91,178,182,219,241 - betlar): *Bozorda **odam qalin** (219), **Xalq qalin**, bobomni qo‘lma-qo‘l olib ketmoqda (241), Aksariyat hollarda u o‘z ma’nosi bilan **ko‘p** so‘ziga yaqinlashadi. «Bolalik»da biz faqat bir o‘rinda **zich** so‘zi ishlatilganini kuzatdik: *Supalar, so‘rilardagi namatlar, sholchalarda xalq **zich** o‘tiribdi (231).**

Qalin so‘zini yuqoridagi mazmunda qo‘llash uning boshqa asarlarida ham faol: *Bozor kuni bo‘lganidan rastalarda **odam qalin** («Qutlug‘ qon»).* Shunday qo‘llash yozuvchining muddaosini to‘lig‘icha ifoda etib kelayotgan bo‘lishi mumkin. Chunki **ko‘p** so‘zi bu yerdagi odamlarning zich va tig‘iz turganini ko‘rsata olmayotgandir. Shu bilan birga, **zich** va **tig‘iz** deyish ham ularning oz yoki ko‘pligiga ishora bera olmaydi. Ularning vazifasi chegaralangan. Masalan: *Samovar **zich** odam (231), Supalar, so‘rilardagi namatlar, sholchalarda xalq **zich** o‘tiribdi (231).* Shu tufayli eng maqsadga muvofiq so‘z sifatida Oybek **qalin** ni tanlagan ko‘rinadi.

Yozuvchilarning hammasi ham bir narsaga, ya’ni iloji boricha ohori to‘kilmagan, kam qo‘llanilgan so‘zlarni ishlatishga harakat qilishadi. Bu hamma vaqt ham obrazlilikni keltirib chiqarishga xizmat qila olmasligi mumkin. Ammo individuallikka xizmat qiladi. **Tengdosh** sinonimik qatoridagi **tengqur**, **teng** so‘zlashuv, badiiy va boshqa uslublarda faol ishlatilishi bilan birga, shu qatorga

⁴ Ҳоҗиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1974, 248-бет.

kiradigan **teng-to'sh**, **hamqur** so'zlari nafaol. Ammo Oybek **hamqurga** bermalol murojaat qiladi: «Qutlug' qon» romanidan olingan *Yo'lchi o'z hamqurlari bilan birga tong shabadasida ishga tushar, quyosh tik kelganda ovqatlanib, to qorong'u tushguncha yana mehnat qilar edi misolida hamqurni tengdosh, tengqur, tengtush* so'zlari bilan bermalol almashtirish mumkin bo'lgani holda Bahor shamoli bizlarga **hamqur** (44) gapida bunday qilib bo'lmaydi. Chunki u **shamol** ga nisbatan qo'llanilyapti, inson bilan shamol o'rtasidagi nozik muqoyasa o'lchovini sinonimik qatordagi faqat shu so'zgina bajara olyapti, boshqalarini esa odamlarga nisbat berib ishlatish mumkin. Demak, Oybek qalamida bu so'zning ma'nosi vazifasi bir qadar kengaygan.

Mardikor olishga qarshi ko'tarilgan ommaning qo'zg'alish manzarasini adib «Bolalik»da original tasviriy vositalar – metaforalar, metonimiyalar, o'xshatishlar yordamida g'oyatda ta'sirli chizadi: *Olovi ko'ksiga tiqilib turgan bir yonar tog'dan Toshkent chayqalib ketadi, birdan g'azabi yoriladi. Ertalab barvaqt baqqoldan beda olish uchun Balandmachitga tushaman. Guzar asabiy, serg'alva. Xalq Shayxantovurdan, Sebzordan, Ko'kchadan, Olmazor tomondan oqmoqda* (177), *Olomon bir oz chekinadi, ammo birdan qahr-g'azabi ortib yana hayajonga keladi, tag'in duv qaytib, olg'a suriladi. Xalq to'lqini qaynaydi* (178).

Oybekning til mahoratida ibratli o'rinlar anchagina. Ana shulardar biri tobora kam qo'llanilib borayotgan so'zlarga, qo'shimchalarga bo'lgan e'tibor. Koyimoq, ogohlantirmoq ma'nosidagi **tanbeh** so'zini ko'pincha **tanbeh bermoq** shaklida qo'llaymiz. Ammo Oybek **tanbehlamoq** shaklida ishlatishni ma'qul ko'radi: «*Buvingga ko'rsatma, uqdingmi?*»-deb **tanbehlaydi** chol (4), «*Gunoh, turgan-bitgani gunohi azim. Zinhor-zinhor qo'lingizga cholg'u ushlamang!*»-deb uqtirardi, **tanbehlardi**(65). Ko'pincha **noxush bo'lmoq** deb ishlatamiz. Oybek esa **noxushlamoq** ni yoqtiradi: *ayvonda do'ppi tikib o'tirgan onam buvimning tovushini eshitib, undan noxushlanganday qovog'ini solib, qatim tortaveradi* (5). Shu tarzda «Bolalik»da **vazifashunos** (152), **dudburon** (6), **nomusulmon** (57), **serdiqqat** (215), **xayolxona** (35), **g'azabkor** (174) singari so'zlar qo'llaniladi. **Suyanmoq** – **suyalmoq** (5), **chiqqan** – **chiqiq** (13), **sudramoq** – **surgamoq** (37,211),

vizillmoq – **bozillamoq** (37), **o'ynoqlamoq**, **dikanglamoq** – **chig'onglamoq** (93) tarzida ishlatiladi.

Q. Samadov Oybek asarlarining til xususiyatlarini o'rganar ekan, «Qo'shimcha ham qo'mondon», degan iborani ishlatib, uning ijodidagi ana shu birliklarni tahlil qilgan edi. Darhaqiqat, Oybek tildagi bu birliklarga ham katta mas'uliyat bilan qaraganligi ma'lum bo'ladi. Masalan, sifat va sonlarga qo'shib, fe'l hosil qiluvchi **-lan** affiksiga sinonim sifatida erkatatish, kichraytirish ma'nosini beruvchi subyektiv baho shakli **-gina** ni qo'llashi nafis bir obrazlilikni yuzaga keltirgan: *Ertasigayoq jildimni bo'ynimga osib, yalqovgina maktabga boraman* (207). Bu o'rinda yozuvchiga **yalqovlik** so'ziga **erinchoqlik** so'zlarining ma'nodosh bo'lganligi, shaklni ana shu so'zdan olganligi shubhasizdir.

Matnda ta'kid, kuchaytirish kabi ma'nolarni anglatuvchi element **-ki** diqqatni tortadi: *Ahmad tentakroq, oshiqboz, juda kambag'alki...* (31). Bu o'rinda **ki** biroz yopishmayotgandek tuyuladi. Bunga **juda** so'zi sababchiday. Chunki biz bu tarzda qo'llashga odatlanmaganmiz. Ammo ma'noga ham, uni kuchaytirishga ham putur yetmagan.

Oybek barcha nasriy asarlarida **allaqanday** so'zini qo'llagan. Jumladan, «Bolalik»da ham: *To alifbodan tortib, qur'ondan oyatlar. Navoiy, Fuzuliyning g'azallari, Bedilning forsiy baytlari – hammasi qo'shib, aralashib, havoda hamisha allaqanday bir shovqin – ovoz buluti turadi* (132). Bu so'z, nazarimizda, o'quvchini badiiyat olamiga tortuvchi, poetik mushohadaga undovchi da'vat bo'lib tuyuladi. Uning «*Allaqanday bir aravakash bir arava qumni ko'chaga tushirdida, ketib qoldi*» (27) gapidagi singari «sof gumon ma'nosi»ni berishi kamdan-kam ko'zga tashlanadi.

Oybek «Bolalik»da, umuman boshqa asarlarida ham **zavq** so'zini alohida bir urg'u, obrazli qilib, boshqacha aytganda, alohida bir zavq bilan qo'llaydi: *Xayolimda odamlarga qaraganda otlarda zavq ko'p deyman-ov! Ayniqsa, yo'rg'a otlarga minganda zavqqa to'lasan kishi* (28), *Ha, lekin tuya mingan kishi tuyaning qadrini, ishining zavqini biladi* (29). Mana bu misolda esa «Ikki yon tomonga bir

*tekis harakatda bo'lish»*⁵ ma'nosini ifoda etuvchi **chayqalmoq** so'zi bilan birga ishlatilganda nihoyatda ajib bir lirizmni keltirib chiqargandir: *Daraxtlarning bunday fusunkor gullari, ko'm-ko'k mayin yaproqlari ruhlarni ko'taradi, zavqlarni chayqaydi* (44). Bu esa Oybek yaratgan takrorlanmas tasvirlar deb bimalol ayta olamiz.

Ta'm, maza ma'nolarini bildiruvchi **tot** so'zi juda kam qo'llanadi. Ammo u Oybekda uchraydi: *Quyosh jahannamday yonadi, shunga tuya chidaydi-da. Lekin sutidan qumron yasaydilar... Toti yaxshi bo'ladi* («Bolalik», 29).

Oybek «Bolalik»da **gorod** so'zini tez-tez ishlatadi. Buning boisi o'sha paytlarda **shahar** so'zining yo'qligida emas, balki ijtimoiy munosabatlarning ma'lum davrida **gorod** ning jonli so'zlashuvga osongina kirib kelganligi bilan izohlanadi: *maza qilib uzoqqa, gorodga borganmiz* (36). Asrimiz boshlarida so'zlashuv tili uslubiga xos bo'lgan bu so'z vaqt o'tishi bilan iste'moldan chiqib ketdi.

Yozuvchi asarlarini qiyosiy tahlil etish jarayonida shu narsa ayon bo'ladiki, nafaqat «Bolalik»da bayon etilgan voqealar, ayrim detallar «Qutlug' qon» va «Ulug' yo'l» romanlarida o'z ifodasini topgan, balki bu asarlarda ayrim gaplar, jumlar ham bir-biriga o'xshab ketadi. «Bolalik» da, mahsido'z usta tilida: *Boylarimiz ochko'z, boyvachchalar bo'lsa aysh-ishratda. Mana bu gaplarning mag'zini chaq.* (216) «Qutlug' qon»da Mirzakarimboy tilida: ?

«Bolalik»da, usta tilida: - *Machitga bor, ustalar pulga qarab o'tiripti. Lekin minora osmonga yetsin, seni arsh a'loga olib chiqadi, qari xo'roz!* (28). «Qutlug' qon» da, Yo'lchi tilida: ?

Badiiy til muammolari nihoyat darajada keng qamrovli bo'lib, u barcha lingvistik – fonetik, leksik, frazeologik, grammatik hodisalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ammo bir bitiruv malakaviy ishda ularning barchasini amalda qamrab olishning imkoniyati bo'lmaganligi tufayli diqqatimizni ko'proq Oybekning so'z qo'llash mahorati va bundan kelib chiqadigan uslub masalalariga qaratdik.

⁵ Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати, 189-бет

Oybekning boshqa asarlarida bo'lgani kabi «Ulug' yo'l»da ham odatdagi turmushda hamda badiiy ijodda mahsuldor qo'llanilib kelinayotgan umumxalq va umumadabiy leksika bilan bir qatorda asar o'qilayotganda e'tiborni tortadigan so'zlar ham anchagina. Ularni quyidagi guruhlariga ajratib tahlil qilish yozuvchini uslubni aniqroq ko'z oldimizga keltirishimizga ko'maklashishi mumkin:

1. Badiiy buyog'i kuchli bo'lgan, zamondoshlar ijodida ham faol uchraydigan so'zlar: **g'olibiyat, sarbast, illo, g'oyat** kabi. Inshoolo, buyuk Rusiyamiz **g'olibiyatga** erishajak. Bunga aminmiz, - dedi Eshonxon bilimdonlik bilan (5) (Oybek. Ulug' yo'l. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. Bundan keyin shu manbaning sahifalari ko'rsatiladi). *O' sarbast, ziyrak harakatlari dadil, so'zlari o'tkir, o'rtoqlari orasida onabosh qiz*(13).

2. Umumxalq tilida o'z variantlari, sinonimlari bilan mavjud, ammo Oybek ma'qul ko'rib ishlaydigan zo'zlar. Masalan: **yana, qayta, boshqa, bo'lak, endi, boz** sinonimik qatoridagi **tag'in** so'zi (5,6,7,10,16,23,27,29,35,41,64,65,83,116,133,138,251,338-betlar): *Ular ba'zan eshikni qiya ochib, tag'in yonar, o'zaro shivir-shivirlashib g'uyar edilar* (23); - *Tag'in nima gap topib keldingiz? Doim mashmasha...*(16) bu fikrni kichik bir statistik tahlil ham tasdiqlashi mumkin. Bir sinonimik qatordagi so'zlarning romanidagi qo'llanish chastotasi quyidagicha: **yana** – 113, **tag'in** – 113, **qayta** – 91, **boshqa** – 11, **boz** – 1, **endi** – 110, **topqir** – 1. Ekspressiv ma'nosi kuchli bo'lmagan bu so'zning oddiy so'zlashuv uslubiga xosligini ta'kidlash joiz. U yozuvchining boshqa asarlarida kammahsuldor.

3. Lug'atlarda uchraydigan, ammo vaqt o'tishi bilan kam qo'llanilib borayotgan so'zlar: **yuvoshlanmoq** (16), **tanbehlamoq** (49,187,364), **koranda** (75), **bejamoq** (89), **bejamog'liq** (94), **bozillamoq** (89), **bilgich** (67,82), **vazifashunos** (98,178), **yurumsak** (134), **dandonbozlik** (132), **yengillanmoq** (138), **asabiylanmoq** (192), **taqilmoq** (332), **jiddiyat** (266), **xushichim** (157), **serfikr** (213), **husndor** (230), **xushxulq** (243), **bahayo** (246), **xushxo'r** (290), **serkulgu** (315), **serzavq** (315), **bog'dor** (316), **serdiqqat** (331), **zolvordor** (382), **sehrkor** (44, 347, 348) kabi.

Ularining bir qismini, masalan, **bo'g'ot** (13), **toqidor** (86), **engil** (166), **ijtihod** (20), **ifrat** (27,43,57), **quroq** (79,112), **munoqasha** (137), **muhoraba** (145), **mo'tamoq** (248), **tuvoq** (269,332), **kirpech** (271), **sharafa** (292), **g'urub** (328) singari so'zlarni hozirda izohli lug'atlar yordamisiz tushunish qiyin bo'lib boryapti.

Oybekning, lug'atlarimizda qayd qilingan bo'lsa-da, ammo nutqimizda tobora kam ishlatilib so'z shakllarini qo'llashni ifoda aniqligi va obraz yaratishning mahsuldor usullaridan deb tushunish va bu ham uning uslubidagi alomatlardan biri ekanligini hamda bu qo'llash ularning yashovchan bo'lishiga xizmat ham qilganligini ta'kidlash joizdir.

4.Tilda mavjud modellar va birliklar asosida Oybek yaratgan yangi so'zlar: **kurmaklanmoq** (6), **bainsof** (15), **bazmkash** (20), **intizomkor** (98), **xalqchi** (224,262), **lazzatparast** (248,44), **sahndor** (309), **qoidaparast** (349), **sermantiq** (375) singari. Ular muallif tilida ham, asar qahramonlari tilida hamma bab-baravar ishlatilavergan: *Majlis ahlining ko'pchiligi **lazzatparastlikdan** insoniy ma'naviyati buzilganlar esa-da, sehrkor «Rohat» kuyidan ajoyib nozik hayajonlar to'lqinida sirli bir ro'yoga botdilar* (44), - **Lazzatparast** boylar hammasi bir go'r, bizdaqa faqirlar bilan ishi yo'q, yer yutgurlarning (248).⁶

Bulardan tashqari ham Oybek so'z yasashning original betakror yo'llarini axtaradi. A.Hojiyevning «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»da aks etgan sinonimik qator – **dangasa, yalqov, ishyoqmas, tanbal, soyapar (var)**, birliklari (– **parast** qo'shimchasi ko'magida so'z yasashga intilish boshqa adiblar ijodida ham bor. Masalan, Zulfiyada: Harorat! Harorat! Men seni sezaman qonimda, Ko'rganda farzand, do'st, qardoshning yuzini. Sezaman o'qigan va uqqan onimda, Nur gulday dilparast she'rlardan shoirning ko'zini⁷ va bu qatorga kiruvchi, ammo e'tibordan chetda qolgan erinchoq xushyoqmas so'zlari ham ijodkorlar uchun ko'plab imkoniyatlardan biri. «Ulug' yo'l»da shunday tasvir bor: *Eshonxon ochligidan oshni bosh ko'tarmay oshalar, Saidahmad esa... yerdi* (12) tahlil obyekti bo'lgan

⁶ Хожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изохли луғати, 83-бет.

⁷ Каранг: Каримов С. Язык поэзии Зулфии. – Самарканд, 1987, стр.-18

soʻzni ataylab tushirib qoldirdik. Bu oʻrinda ***erinchoqlik bilan, erinibgina, xushlamaygina*** deb bermalol gapirish mumkin va ular fikrini aniq ifodalay oladi ham. Ammo Oybek «*yalqovgina yerdi*» deb ishlatadi. Asarni eʼtibor bilan oʻqigan kitobxon uchun bu topqirlik obrazlilikning favqulodda goʻzal tasvirning namunasi boʻlib tuyuladi.

Umuman, yozuvchi tomonidan yangicha shaklda qoʻllangan har bir soʻz va ibora uning tafakkur va tasavvuri qamrovidagi tushuncha va ehtirolarning yuqori darajadagi va badiiy estetik ifodasi deb bermalol ayta olamiz.

II bob

Oybek asarlarining lingvostilistik xususiyatlari

Tildan foydalanish mahoratida ijodkor oldiga ko‘plab talablar qo‘yilishi tabiiy. Bu talablardan eng muhimi til birliklarini yuksak badiiylik uchun bo‘ysundirish ekanligi ma’lum. Badiiy asar tili va uslubi tahlili atrofida asosiy gaplar esa aynan shu to‘g‘rida bo‘ladi. Ushbu ma’noda masalaning yana bir jihati borki, u ham pirovard natijada ijodkor uslubiga borib taqaladi. Bu–ayrim til birliklarini, jumladan, so‘zlarni, qo‘shimchalarni, so‘z birikmalarini qo‘llashga adibning ayricha bo‘lgan munosabati. Bunday holat har bir so‘z san’atkori qalamida ham ko‘zga tashlanib turadi.

Oybekda ham ana shunday alohidalik mavjud. Bu alohidalikni uning barcha asarlarini o‘qiganda ham kuzatamiz. Payti kelganda ularni umumlashtiruvchi xulosalarimizni aytamiz. Ayni paytda adibning «Quyosh qoraymas» hamda asarlarida alohida e’tibor bilan, aytish mumkin bo‘lsa, yoqtirib qo‘llagan til birliklariga diqqatimizni qaratamiz.

2.1. “Bolalik” asari misolida

Oybekning qirq olti yoshida og‘ir va bir umrli xastalikka yo‘liqqanida, shunday ijodiy kuchga to‘lgan edi. Ammo xastalik uning tiliga kishan solib, o‘ng qo‘lidagi qalamni bir umrga tortib oldi. Oybek ko‘pgina asarlarini jumladan ”Bolalik”ni qissasini ham oila a’zolariga aytib yozdirdi. Oybekning “Bolalik” qissasi estetik janrda yozilgan. Asarda bosh qahramonning biografiyasi xalq hayoti davr hodisalari ijtimoiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlangan.

Qissada bosh qahramon Musaboyning biografiyasini hikoya qilish orqali o‘sha yillardagi xalq hayotining keng haqiqiy manzarasi chizilgan. Qissa o‘z uslubining mayinligi lirizmga boyligini voqealar mantig‘ining kuchliligi va

izchilligi ,obrazlarning aniqligi,qissa tilining ravon va jozibadorligi bilan kitobxonlarga manzur bo‘ladi.

Oybek bu qissani yozish bilan birga o‘zining bolalar dunyosini, kichkintoylar psixologiyasini qanchalik chuqur bilishini namoyish etadi.Chunki bu asarda bolalar xarakteri va psixologiyasining turli xil, hatto ba’zan ko‘z ilg‘mas darajada nozik bo‘lgan murakkab tomonlari ham mohirlik bilan ochib berilgan.Oybekning “Qutlug‘ qon” romani voqealari bilan “Bolalik ” qissasi voqealari bir-biriga o‘xshaydi. M Qo‘shjonov ta’kidlaganidek “Tarixdan ma’no izlashni Oybek umrining oxirigacha davom qildirdi. U o‘zining “Bolalik ”qissasida temirchi Jo‘ra, Tursunlar va Yo‘lchilar davriga murojaat qiladi. “Bolalik”da temirchi jo‘rani eslatadigan kosib va masteroviylar obrazini yaratdi.”Bolalik”da yana bir xulosa Oybek poemalari bilan uchrashamiz.”⁸

Bu esa adib qahramonlarining hayotiy ekanligini yana bir tasdiqlaydi. Oybekning “Bolalik ”qissasi shaxsiy sarguzashtlar ifodasi bo‘lib qolmasdan, adib qalamining har bir harakatida katta umumlashmalar, davrning xarakterli voqealari,muhim masalalari talqini yotadi.Asar bosh qahramoni Muso doim bobosi Otaqo‘zi bilan birga yuradi.Undan latifalar, ertaklar ,rivoyatlar tinglaydi.Ikiknchi bobosi (onasining otasi)ham Musoni juda yaxshi ko‘radi.Muso bobosi huzurida xalifalarning turli hangomalarini eshitadi. Onasi Karomatning Mashrab, Fuzuliy g‘azallarini o‘qishi Musoda kitobga havas uyg‘otadi. U maktabga o‘qishga borganda ham qunt bilan domlasi buyurgan vazifalarni bajaradi. U ayniqsa Navoiy she’riyatini juda sevadi. Ilk daf’a Navoiyning ijodini o‘qir ekan, Navoiyga bo‘lgan bo‘lgan munosabatini quyidagi satrlarda bayon qiladi:

”...Baytlari ishqiy , falsafiy, chuqur mazmunli... Haqiqatdan, Navoiy menda pok sevgi yaratdi. Uning she’rlarini zavq bilan, chuqur his bilan o‘qiyman. Pok muhabbatni, chuqur ma’noni yoqimli hisni ilk daf’a Navoiydan o‘rganaman.”⁹

Oybek xalq tili boyligini ruhini mukammal bilgan va ulardan ustalik bilan bilgan va ulardan ustalik bilan foydalana oladigan san’atkor bo‘lganligi uchun ham

⁸ M.Qo‘shjonov Mohiyat va badiyat. Tosh. 1977-yil 100-bet.

⁹ Oybek “Bolalik” Toshkent “O‘qituvchi” 1979-yil 185-bet

“Bolalik”ning tili shirali, sodda va ravon. Asar tilining bu fazilati, eng avvalo adibning tabiiylikni ta’minlashi bilan o’lchanadi. Chunki umuman ijodda, xususan tilda tabiiylikni ta’minlamay turib, obrazlilikni yuzaga keltirib bo’lmaydi. Negaki, hayotimizdan mahrum obrazlilik, badiiylik emas, sun’iylikdir. “Bolalik”da yozuvchi har bir nutq vositasini, sharoitni, qahramonlar sevgisini, intilish va dunyo qarashini nazarda tutgan holda qo’llagani uchun tabiiylikni ta’minlay olgan.

Ustoz Oybek har bir asarida xalqimiz taraqqiyoti tarixidagi xarakterli davrni qalamga oladi. Uni butun murakkabligi bilan juda haqqoniy ifodalaydi. Natijada ko’p qirrali ijtimoiy, siyosiy, va madaniy hayotimiz munavvar ko’zgu sifatida namoyon bo’ladi.

Sevimli adib har bir tarixiy jarayonini haqqoniy aks ettirar ekan, xalq qalbi va ruhini butun to’laligi bilan ijodlashga va badiiy mahsul qaddini tiklovchi tasviriy vositalarning tabiiyligiga alohida e’tibor beradi.

Binobarin hayotiy materialning tabiiyligiga ham zarur. Adib bu masalaga hamisha yuksak san’atkorlik nuqtai nazaridan yondashadi. Oybek ijodkorning xalq tilidan foydalanishda alohida ma’suliyatini nazarda tutishni uqtiradi. Ayni vaqtda yozuvchi tiliga ijodiy yondoshsa, uning xizmatlari xalq tili taraqqiyotiga ta’sir etishini ham ta’kidlaydi. ”..... tilning..... boyishida, ijod va so’zlarning aniqlanishida fikrlarni ochiq va qavariq bera bilishida adabiyotning, demak , san’atkorlarning katta xizmatlari bo’ladi”¹⁰

Bu esa badiiy qalamning mo’jizakorligini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Sevimli adibimiz bu nazariy xulosani amaliy ijod jarayonida qay tarzda reallashtirganligini anglash uchun uning ijod olamiga, so’z olamiga biroz sayr etaylik.

Oybek tinmay mehnat qilish bilangina xalq tili xazinasini zabt etish, ”so’zni chog’lantirish”, ”so’z kapitali”ni egallash mumkinligini ta’kidlaydi. ”So’z chertib

¹⁰ Samadov. Q Oybek so’z san’atkori Toshkent 1965-yil 4-bet.

olinishi, har yoqlama tanlanishi lozim ”¹¹ -deydi. Ammo bu mazmunning hamisha lo‘nda va aniq ifodalanishiga, tasvirning ixchamligiga xizmat qilish kerak.

Yozuvchini niyatini, nimaga urg‘u berayotganini anglatishda ayrim so‘zlar alohida funksiya o‘tashi tabiiy. Bunday so‘zlar ijobiy qahramon nutqida ham, salbiy qahramon nutqida ham, go‘zallikni, xunuklikni xarakterlashda ham qo‘llaniladi va ma‘noni yorqin namoyon etishga, tasvirni ixchamlashtirishga katta imkoniyat beradi. Oybek xalq tilidagi mavjud so‘zlarni mohirona tanlaydi, saralaydi, nutq davrasida alohida yuk ko‘taruvchi elementni topib ishlatadi. Mana “Bolalik” asaridan bir misol. Asar qahramonlaridan biri Rohat deydi:”-Otam juda ham kambag‘al qashshoq edi, ammo cho‘pchakka boy edi”. (Oybek “Bolalik” Tosh 1963 y 11bet) “Kambag‘al”, “qashshoq” va “boy” so‘zlari so‘zlarining antonim ekanligi ma‘lum. Ammo tasvirda bu so‘zlar yanada bo‘rttirib ko‘rinayapdi, ularning ma‘nosi vazmindor ohang bilan alohida jaranglayapdi. Chunki adib bu so‘zlarga urg‘u berib, ularning zamirida faqir bir zahmatkashning moddiy qashshoqligini, ammo ma‘nan boyligini ifodalayapti. Ayniqsa “boy” so‘zi bu ma‘noni anglatishda alohida ahamiyat kasb etgan.

Oybek yaratgan asarlarda bir so‘zning o‘zi turli ma‘no nozikliklarini yuzaga keltiradi.

Uchta misolni taqqoslab ko‘raylik:

1. *”Mana bu o‘ris kitob bilan dardlashib yotibdi, labi qimirlamasa ham gaplashayotibdi. Yex ko‘rlik qursin!”*. (322-bet). *Yo‘lchi turmada Petrovning kitob o‘qishini ko‘rib, o‘zining savodsizligi haqida shunday o‘ylaydi.*

2. *“-O‘rischaga ko‘zimiz ko‘r”* (71-bet). *Asqar polvon til bilmaslikni shunday ifodalaydi.*

3. *“-o‘qimaganlarning ko‘kragi ko‘r”* (16-bet) *Musoning ona tomonidan bobosi savodsizlikni ko‘rlikka tenglashtirdi.*

Har uchala misolda birlashtirilgan narsa ko‘r so‘zi zamirida mujassamlangan umumiy fikrdir. Chunki ko‘r kishi yo‘l topishda qiynalganidek, xat bilmaslikning ham bu ahvoldan farqi qolmaydi. Ikkinchi misolda “ko‘zimiz ko‘r”- deb ochiq

¹¹ Samadov Q. Oybek –So‘z san‘atkori.TOSH. 1965-yil 4-bet.

aytilgan. Birinchisida “ko‘z” so‘zi ishlatilmasa ham misol mazmunidan u anglashilib turibdi. Haqiqatdan ham og‘zaki va yozma nutqimizda “o‘qimagan kishi ko‘r”, “o‘qimaganmiz ko‘rmiz”, “ko‘zimiz ko‘r” tarzida ishlatilib savodsizlik ko‘zning ko‘rligiga nisbatan aytiladi. Ammo uchinchi misol savodsizlik, bilimsizlik, ko‘ngilning ko‘rligi deb atalyapti. Natijada bu birikmaning ma’nosi yanada takomillashib ko‘zning ko‘rligidan, ko‘ngilning ko‘rligi shaxs uchun zabunlik va fojид degan xulosa yuzaga keladi va inson dilining charog‘on zulmatdan holi bo‘lishida ilmi bo‘lishning ahamiyati yaqqol gavdalanadi. Shuni ham aytish kerakki, biz tahlilda “ko‘ngil”ga e’tibor berdik. Adib esa ko‘krak so‘zini ishlatgan. Taajjubga o‘rin qoldiradigan qandaydir nomuvofiqlik bordek seziladi.

Haqiqatdan ham “ko‘krak” va “ko‘ngil” so‘zlari bir-biriga uncha yaqin emas, ammo ayrim hollarda og‘zaki nutqda bu ikki so‘z bir-birining o‘rnida qo‘llaniladi. (Ko‘kragi ko‘tarildi-ko‘ngli ko‘tarildi, Ko‘kragi g‘am-g‘ussa bilan to‘la-ko‘ngli g‘am-g‘ussaga to‘la) keltirilgan birikma esa keksa kishi (Musoning ona tomonidan bobosi) nutqida qo‘llanilgan. Demak, Oybek personaj nutqining o‘ziga xosligini yuzaga keltirishda eng nozik tomonlarga ham jiddiy e’tibor bergan, xalq tilidagi osonlikcha ilg‘ab bo‘lmaydigan xususiyatlarni topa olgan.

Xalq tili benihoya boy uni lug‘at varaqlash bilangina egallab bo‘lmaydi. Yozuvchi uchun jonli lug‘at hayotdir. Har bir so‘zning qadr-qimmatini iste’mol jarayonida topiladi. “ Navoiy”dagi eski so‘zlar “Bolalik”da deyarli ko‘rinmaydi. Bu shubhasiz, har bir davrni butun yaxlitligi bilan aks ettirish borasida ijodkorga yuklatilgan talab taqozasidir. “Tug‘ilish” va “Qadrim” da sanoat sohasidagi yangi mashinalarni anglatuvchi so‘z va terminlar hali o‘zbek lug‘atlariga kirib ulgurgani yo‘q. Biroq uning uchun Asqad Muxtor va Primqul Qodirov aybli emas, chunki ular hayot taqozasini qalamga olgan. Demak, badiiy asar qaddini tiklashda har bir so‘z huquqqa ega. Faqat qaysi so‘z qalamni o‘qlab, qahramonning g‘azab va shiddatini kurash maydoniga olib chiqishi, qaysi so‘z qalamdan quyilgan mehr nurlarini bir nuqtaga to‘plash va asar qalbini yaratishga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin, buni davr, vaziyat, mavzu kabi omillar belgilaydi. Masalan, ...keksa

tovuq... degan iborada qanchalik keng mazmun borligini xayolga ham keltirmaslik mumkin. Yo‘lchi Mirzakarim boydan haq ololmagach, bunday deydi: “Bundan ko‘ra go‘ng titganing yaxshi emasmi, kekxa tovuq!” (270-bet) Demak, bu ibora boyning butun qiyofasini ayniqsa, tekinxo‘rligini ochib tashlashda, Yo‘lchining g‘azab nafrat o‘qini, boyga yo‘llashda eng monand vosita sifatida xizmat qilgan. Yoki ”Gulnor kabi hayot quyoshidan ayrilib” (270-bet) degan tasvirni olaylik “Hayot quyoshi” iborasida Yo‘lchining butun mehr nurlari muhabbat yolqini mujassamlashgan. Albatta Yo‘lchi qishloqdan kelgan kunlarida yigit va qiz bir-birini dastlab ko‘rgan paytlarida bu so‘z ishlatilsa suniylilik bo‘lar edi. Chunki u vaqtda Gulnor Yo‘lchi uchun “Hayot quyoshi” emas, begona edi. Ikki yoshning bir-birini anglashi fikr va tuyg‘udagi inoqligi, munosabatda samimiyligi ularni bir-biri uchun “eng go‘zal, eng porloq umid”- quyosh darajasiga ko‘tardi.

Shunday eng aziz narsasidan mahrum bo‘lish hayotni butunlay puch va ma’nosiz qilib qo‘yishi turgan gap. Shu sababli bu iborada qahramon ruhiy holatining yakuni mujassamlashgan. Demak, kitobxon qalbiga yo‘l topish uchun kitob qalbiga kalit topish kerak. Yuqoridagi iborada ana shu imkon borligi uchun ham o‘quvchida adib va qahramonga hamdardlik tuyg‘usi tabiiy ravishda mavjlanadi.

Yangi so‘z yaratish g‘oyat qiyin va murakkab ishdur, u osonlik bilan yuzaga kelmaydi. Ammo qalamkash o‘z badiiy mahsulini barkamollashtiruvchi omillarni hozirlar ekan, ijod laboratoriyasiga ba‘zan yangi so‘zlar ham qo‘yadi. Demak, yozuvchi yaratgan so‘zlar ijod jarayoni mahsulining tarkibiy qismini tashkil etadi. Oybek so‘z bilan so‘zni, so‘z bilan qo‘shimchalarni birlashtirish imkonini topib, ko‘rinish jihatdan yangi so‘zlar yaratadi va ularga yangi mazmun yuklaydi. Masalan, “Bolalik” qissasidagi “Vazifashunos” so‘zini olaylik. Bu adibning ijod xonasida shakllangan yangi so‘zdir. Chunki “vazifa” so‘zi va qo‘shimcha sifatida qo‘llaniluvchi “shunos” (bu aslida tojikcha mustaqil so‘z- “shunohtan” fe’lidan) mavjud bo‘lsada bir butun holda qo‘llanilmas edi.

Oybek ularni birlashtirish imkonini topdi va yangi soʻzni yuzaga keltirdi. Ayni vaqtda bu “bilarmon”, “bilimdon” soʻzlariga sinonim jihatidan ham xarektirlidir.

2.2. «Quyosh qoraymas» asari misolida

Oybek «Quyosh qoraymas»ni alohida bir diqqat bilan yozganligi uning tilidan maʼlum boʻlib turadi. Hech mubolagʻasiz aytish mumkinki, asar boshdan oxirigacha obrazli ifodalarga toʻla. Unda keltirilgan har bir tasviriy vosita, u xoh anʼanaviy, xoh yozuvchi uslubiga xos individual boʻlsin, hikoya badiiy boʻyoqlar boʻlishiga boʻysundirilgan. Ayrim namunalarni keltiramiz: *tanklardagi toʻplarning uzun stvollari olov purkay boshladi*. Bu ularni *mujassam baloga, mujassam vahimaga aylantiradi* (19. Oybek. Asarlar. Oltinchi tom. –Toshkent: Gʻ.Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1971. Bundan keyin shu manbaning sahifalari koʻrsatib boriladi.), ... *Oʻqlar dogʻli selday yogʻildi* (20), ... *Oʻlim quyuni hukmron* (21), *Minalar har qadamga tushib, yerni gʻajiy boshladi* (21), *Bir zumda qora qushlar Bektemirning tepasida charx ura boshladi* (23) va hokazo.

Asarning oʻqimishli, tasvirning obrazli boʻlishi uchun yozuvchi bor mahoratini ayamagani maʼlum boʻlib turadi. U yuqoridagidek badiiy ifodalarga nihoyatda boy, jonlantirishlar bilan toʻla. Toʻgʻrisi, unda boʻlmagan gaplarni, abzaslarni kam uchratamiz. Oybek tasvirida *urush maydonida, jang paytida osmondan balo shoʻngʻiydi* (7), *U batalonga chovut soladi* (8), *havodan jahannam yogʻiladi* (8), *yiqilgan daraxtlarning qarsillashi faryod kabi tuyuladi* (8), *yomgʻir zeriktirgich shuvillaydi* (8), *koʻzlar boshpana qidiradi* (8), *U maʼyus nafas oladi* (12), *rus oʻrmoni maʼyus, parishon* (14), *pulyemyotlar asabiy kakillab kuldi* (14), *oʻlimning oʻrogʻi kamalakday katta* (15), *pulyemyot serjahl kuchukvachchaday akkillaydi* (16), *snaryadlar ruhni sugʻurib olayotganday xunuk ingrab uchadi*,

o'lim sepib yoriladi (17), portlashlardan yer fig'on ko'tarib, havoga tuproqlar minorasi yuksaladi (18) va hokazo.

Bu kabi go'zal badiiyat namunalarini «Quyosh qoraymas»ning uslubini belgilovchi, uni adibning boshqa asarlarida, masalan, «Ulug' yo'l» romanidan keskin farqlovchi omillar deb ayta olamiz.

Roman tilida qo'llangan mubolag'alar ham, frazeologik iboralar ham aynan shu obrazlilikni ta'min etishga xizmat qilgan. Mubolag'alar: *Jangchilarning nafrat va g'azabi dushman qoni bilan uncha qoniqmagan kabi, tevarakda ov qidirib izg'ishardi (60). -Komandir toshni tishlasa, g'ajiydigan odam. Fikri ravshan. Yuragidagi olov o'lganida ham o'chmaydigan olov, -dedi Bektemir shavq bilan (149).* Frazeologizmlar: *kunduzning ko'zi yumulmoq (27), o'lim jariga qulamoq (47), ko'zlaridan uchqun sachramoq (79), so'lish olmoq (81), o'q sepmoq (86), qurshov xayfidan bosh chiqarmoq (94), qopqonga tiqmoq (94)*kabi.

Bu birliklarning qo'llanishidagi e'tiborli tomon shundaki, ular an'anaviy emas, asos yozuvchi Oybek tomonidan yaratilgan.

Oybek romanni yozish davomida dastlabki o'ringa badiiylilikni ta'minlash vazifasini qo'ygan bo'lsa, undan keyin voqealarni real, u qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlash, ifoda aniqligiga katta e'tibor berdi. Bektemirning dastlabki janglardagi ahvolini eslaylik: *Yana yer fig'on ko'tarib titradi, havoga tuproq minorasi yuksaldi. Iloji bo'lsa chuqurga butunlay singib ketmoqchi bo'lgan Bektemirning javdiragan ko'zlariga tuproq va dud urardi. Bektemir uchun bu qanotli balolar, tamoman daf etilmas, yovuz kuch kabi tuyuldi. Mardlikni sevgan, mag'rur yigit o'zini ojiz, zabun, ixtiyorsiz sezdi. Uning borlig'ini g'azab egallagan, ko'zlarida nafrat yondi. Bu g'azab va nafratning kuchi benihoya edi. Ammo bu kuch o'z ilojsizligini sezib, ruhan qiynardi (18). Havo ingradi, yer qaqshab, to'zon bo'lib ko'tarildi. Bombalarning portlashi tinmasdan darrov o'qlar do'li selday yog'ildi. Bektemir g'ujanak bo'lib, yana chuqurga qisildi. Uning ustida o'lim quyuni hukmron (21).*

Bemalol aytish mumkinki, tasvirda bo'lgan ana shu aniqlikda, reallikka intilish Oybekning badiiy ijodda o'z uslubini keltirib chiqardi. Yozuvchi voqealar

bayonida har bir detalni barcha tafsiloti, butun qirralari, shu bilan birga, ularni shoirona, poetik ruh bilan chizib beruvchi adib sifatida shakllandi, adabiyotimizdan o‘rin oldi. Shuning uchun ham biz qaysi o‘rinda Oybek ijodi haqida so‘z yuritmaylik, unga uslubda batafsillik xos deymiz.

Bu fikrlar «Quyosh qoraymas»ning dastlabki sahifalaridayoq o‘z tasdig‘ini topadi: *Vagonlarning gulduros bilan ag‘darilishi, parchalangan relslarning chillakday uchishi, dod-voy, tutun, tuproq – Bektemirning ilk «tomosha»si bo‘ldi (7). Qora quyuq qoshlari ostidagi yirik, tiyrak, bolalarnikiday sof, sodda ko‘zlari bilan uzoqlarga tikildi (8). Mana uning qarshisida zabardast, bashijoat otasi gavdalandi... U so‘z-amal, dilovar, sheryurak kishi (9).* Bular sanoqli misollargina, xolos. Ularni asarning juda ko‘p o‘rinlaridan ham keltirish mumkin. Umuman, asar davomidagi har bir epitet, o‘xshatish, tasviriy vosita, qahramonlar portretlari, peyzaj tasviri - barchasi ana shu oybekona batafsillikka xizmat qilgan, desak xato qilmagan bo‘lamiz. Masalan, Asqar polvon, Ali tajang va nemis efreytorining bir lahzalik portreti: *Ikki tomonda daraxtlar yashil devordek cho‘zilgan yo‘lning chetida og‘ir, lekin dev qadam tashlagan umrovli Asqar polvon va sherigidan ortda qolmasligi uchun, chatanog‘ini kerib pildirayotgan, kichkina Ali tajang ko‘zga tashlanmadi (27). Mana efreytor eshikdan o‘shshayib kirdi. Novcha, oriqlar va guvala bosh efreytor bema‘ni, ablahona gerdayish bilan o‘tirib, uzun oyoqlarini chalishtirdi (137).* Urushdagi tabiat manzarasi va inson harakati uyg‘unligi: *Kunduz kirganiga hiyla vaqt bo‘lsa-da, quyosh o‘z qizi – yerning iztirobli yuzini ko‘rmoqqa cho‘chigandek, bulutlar qo‘ynidan chiqmagan edi (49). Daraxtlar tepasida bulutli samo bo‘zargach, Bektemir, yumshoq loyga tizgachi botishga qaramay, kuchli, g‘ayratli otday ildam jo‘nadi. Yomg‘ir endi asta, ezib savalardi...*

Okopda bag‘rini balchiqqa qo‘ydi. Balchiqdan chirik, noxush hid dimoqqa uradi. Qo‘l loy, yuz loy, non loy. Qon loyga oqadi. O‘lik emas, tirik ham loy tishlaydi (58).

Oybekning «Quyosh qoraymas» romani harbiy mavzuda. Shunday ekan, unda harbiylar hayotiga, ularning faoliyatida qo‘llaniladigan texnika, qurol-aslaha,

buyumlarga aloqador bo'lgan so'zlarning, birikma va iboralarning keltirilishi ham tabiiy. Biz ularni shartli ravishda ayrim semantik guruhlariga bo'lib keltiramiz :

1. Harbiy qismlar, qo'shin turlari: **otdelenie** (86), **jangovar otdelenie** (41), **raschyot** (58), **otryad** (91), **vzvod** (202), **rota** (84), **batareya** (115), **to'pchi batareyasi** (166), **batalon** (7), **polk** (180), **diviziya** (12,80), **armiya** (12,94), **front** (81), **aviasiya** (206), **desant** (200) kabi.

2. Harbiy faoliyatiga oid manzillar, joylar: **punkt** (77), **komanda punkti** (157), **okop** (12,44), **blindaj** (14,74), **peridavt** ? (175), **pozisiya** (12), **mudofaa liniyasi** (12,52), **o't ochish nuqtalari** (152,42), **istehkom** (148), **shtab** (12), **varankob** ?(178,181) singari.

3. Harbiy unvonlar va vazifalar: **soldat** (12), **askar** (72,198), **jangchi** (86), **efretor** (135), **serjant** (42), **starshiy serjant** (86), **starshina** (42), **piyoda** (86), **komandir** (12), **kichik komandirlar** (189), **diviziya komandiri** (50), **vzvod komandiri** (50), **ofiser** (86), **mladshiy leytenant** (70), **kapitan** (12,70), **mayor** (12,89), **polkovnik** (148), **general** (12), **general-mayor** (12,89), **general-polkovnik** (89), **shtab boshlig'i** (12), **kadrovik** (119), ga o'xshash.

4. Harbiy mashinalar, ularning qismlari: **samolyot** (13), **«yunkers»** (18), **tank** (12), **broneboyshchik** (19,53), **tyagach** (115), **bombardimonchi** (120), **oboz** (91), **tankotar to'p** (20,52), **tank bashnyasi** (20), **gusenisa** (20,52), **stvol** (53), **zirh** (75) va hokazo.

5. Harbiy qurollar, ularning qismlari: **miltiq** (16), **avtomat** (42). **to'pponcha** (84), **nayza** (154), **pulemyot** (14,58), **to'p** (8, 14, 53, 74), **zenitka** (178), **zambarak** (191), **qalqon** (206), **bomba** (18,146), **snardiyad** (17,25, 78), **granata** (20,40), **mina** (17,25,78), **raketa** (45), **signal raketlari** (158), kabi.

6. Harbiy aslahalar, kiyimlar: **kaska** (16), **suvqon** ?(20), **beretka** (28), **katelog** (42), **binokl** (59), **protivogaz** (73), **polevoy sumka** (98), **pilotka** (98), **parashyut** (113), **gimnasterka** (117), singari.

7. Harbiy harakatlar, hodisalar: **jang** (12), **mudofaa** (12), **trevoga** (98), **ataka** (15, 49), **kontrataska** (87), **qarshi ataka** (84), **ruhiy ataka** (75), **otishma** (122), **o't ochmoq** (79), **avtomat ocheredlari** (108), va shu kabilar.

8. Bulardan tashqari umuman harbiylar hayotiga oid va urush bilan bog'liq bo'lgan *raport* (12), *prikaz* (15), *chest bermiq* (124), *strategik* (74), *razvedka* (47), *g'alaba* (81), *ustav* (113), *kontuziya* (54), *partizan* (63) singari qarshi tarafda turib urushayotganlarni ko'rsatuvchi *g'itlerchilar* (39,63), *yov* (42), *fris* (53), «*til*» (78), *fashist* (18) kabi birliklar uchraydi.

Biz romanda mavjud bo'lgan harbiy leksika elementlarini bekorga batafsil keltirayotgan emasmiz. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ikkinchi jahon urushi hayotidan asar yozish niyati Oybek urushning boshlanishidayoq bo'lgan. Imkoniyat paydo bo'lishi bilanoq 1942- yil dekabrda bir guruh o'zbek san'atkorlari bilan frontga – Moskva ostonalariga jo'nagan. To'rt oycha G'arbiy frontda bo'lgan va yozilajak romani uchun material to'plagan, jang maydonlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan.¹² Yuqoridagi singari harbiylikka oid birliklar ana shu izlanishlar va Oybekka xos sinchkovlikdan dalolat berib turibdi.

Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchi va muhim tomoni shuki, bu til elementlariga yozuvchi o'zni bilan badiiy ifoda namunasi sifatida yondoshadi. Romanda atamalarni to'g'ridan-to'g'ri keltirib qo'ya qolmasdan, harbiylar tilidagi an'anaviy epitettar va metaforalarga murojaat qiladi: *Samolyotlar qordan, yerdan, qondan xamir yasab tez qaytdi. Faqat qizil yulduzli lochinlar quvib yetib jangga majbur etdi* (180-181). *To'g'risi, ... shunqorlarning mamlakat samosidagi dongli ishlari haqida har kuni front bo'ylab uchgan xabarlarda u picha mubolag'a ko'rishga moyil edi* (55). *Urush xudosi* – to'plarining sadosidan – Isrofil suri ? kabi butun mavjudotni ost-ust qilguday qudratli gumburlashdan hamma yoq larzaga tushdi (49).

Ammo, Oybek tasvirda an'anaviy ifodalar bilan chegaralangan emas. Ularni ba'zan ijodiy o'zlashtiradi, qayta nomlaydi: *urush xudosi* – *jang ilohi*: *Artilleriya* – *jang ilohi*, *azamat*, *xilma-xil*, *katta-kichik*, *ajoyib mahobatli to'plarimiz ishga tushdi* (210). Asosan esa o'z atamalarini yaratadi: *soldatlar* – *parokanda karvon*: *front buzildi. O' dahshatli quyundan yarim-yorti salomat qolgan parokanda karvonni tartibga soldi* (23). *Kompas* – *qiblanoma* :

¹² Z.Saidnosirova Oybegim mening –Tosh. 1994-yil 170-187-betlar.

Komandirda aql ko'p. Qiblanomasi bilan mo'ljallab turib, bir kichkina teshik topmasmikan... – uyqu aralash so'kindi Polvon (97). Kaska – cho'yan qalpoq toshbaqaning kosasi: manglayni ezib yubordi bu cho'yan qalpoq (28), toshbaqaning kosasiday juda ish beradigan narsa ekan bu (26);

Ushbu misollar Oybekning tasvirning obrazli ifodasi uchun hamisha badiiy tafakkur qurshovida bo'lganligini, tinimsiz tashbehlar va muqoyasalar izlaganini isbotlash oladi.

Dadil aytish mumkinki, Oybek uslubiga xos bo'lgan bayonning ana shunday yuqori, poetik tarzi uning ushbu asarida hali aniq bilinib turadi. Biz buni romanning dastlabki boblaridayoq kuzatamiz. Bektemirning urush dahshati bilan ilk to'qnashuv holatlarni o'qiylik: *Uzoqda tutunlangan o'rmonlar orasidan samolyotlar paydo bo'ldi. Ular ko'p edi. Ular sichqonga yugurgan mushukday, qizlarining daf etilmas kuchlarini namoyish qilgan kabi ishonch bilan kelardi. Qora qanotlar o'sib havoni qopladi... Bektemir g'ayrushuuriy ravishda okopning devorlariga tirmashdi. Shu ondan boshlab O' kuzatishdan, o'ylashdan, tushunishdan ojiz qoldi- yurakni uzib oladigandek bombalar uchdi. Yer zil-ziladay titradi. Havoni tutash qandaydir vahshiy, dahshatli guldurash qopladi. Go'yo allaqanday sirli kuch, tog'larni bir-biriga urib ag'darayotganday... Yer uyumlari fig'on bilan chirpirab, girdob kabi ko'itarildi. Bektemirning go'yo nafasi o'chgan, yurakning bolg'aday ko'krakda urganini ham sezmadi. Chaqchaygan ko'zlari oldida yolg'iz tutun, tuproq, o'lim hammanim komiga tortmoqchi bo'lib quturgan, uvillagan bir bo'ron girdobini ko'rdi (16).*

Bektemir guldurosdan hech nima eshitmadi. Samolyotlar qora bo'rondayi tepada gir aylanib, ajalkor qoida va tartib bilan sho'ng'idilar. Yana yer fig'on ko'tarib titradi, havoga tuproqlar minorasi yuksaldi. Iloji bo'lsa chuqurga butunlay singib ketmoqchi bo'lgan Bektemirning javdiragan ko'zlariga tuproq va did urardi (18).

«*Tutunlangan o'rmon*», avval bir qora nuqta bo'lgan, ammo yaqinlashgan sayin aniqlashib, yiriklashib, qanotlar go'yo usayotgan samolyotlar dahshatga, mash'um «*uvlash*», «*guldurama*» vahimasi, tuproq uyumlarining portlashlardan

ko'kka ko'tarilishi va bundan Bektemirning mutlaqo o'zini yuqotib qo'yishi chindan ham realistik tasvirdir. Bu manzara beixtiyor buyuk Tolstoy, uning ifoda uslubini, «Urush va tinchlik» romanini, undagi Pyer Bezuxovning jang maydonidagi holatini esga soladi.

Jang manzarasi naqadar aniq va badiiy. *Samolyotlar qora bulutday tupada gir aylanib, **ajalkor qoida va tartib bilan sho'ng'irdilar*** gapi esa kitobxonni batamom hayajon va hayratga soladi. Axir, jangdagi samolyotning shung'ishida ajalkor qoida va tartib borligi kimning xayoliga kelibdi, deysiz.

Quyidagi kichik parcha ham Oybekning romanni yozishda har bir so'zga iboraga nechog'liq ma'suliyat bilan, badiiyat talabidan kelib chiqib yondosha olganligini tasdiqlaydi: To'pchilar holdan ketib yiqilguncha otdilar, rus, ukrain, o'zbek, qozoq va butut jangchilar do'zaxning o'tyoqar va o'tkovlar shovvozlay kabi. Favqilbasha g'ayrat va g'azab bilan ishlardilar (74).

Darhaqiqat, ajalkor, o'tyoqar, o'tkovlar, favqulbasha singari favqulodda original so'z yasallishlar, agar aytish mumkin bo'lsa, Oybek badiiyatidagi eng go'zal holatlardir. Biz ularni, garchi asarda urush voqealari hikoya qilinayotgan bo'lsa-da, badiiy joziba timsoli sifatida diqqat bilan kuzatamiz. Masalan: **hayratbaxsh, iztirobbaxsh** *O'rmonsiz diyorning o'g'illari uchun son-sanoqsiz daraxtlar manzarasi ayniqsa, maroqli, go'zal, hayratbaxsh tuyuldi* (25), *Xarob, yupun, talangan qishloqning **iztirobbaxsh** manzarasi go'yo Polvonning ko'ksiga o'z dardini quyardi* (72). **Hayratbaxsh, iztirobbaxsh** so'zlari garchi lug'atlarimizda bo'lsa-da, ular hamma vaqt ham tilimizda faol emas, hamma ijodkorlar ham murojaat qilavermaydi. Oybek romanida esa ular anchagina ko'rinadi: **bo'ranlamoq:** *O'limni mensimaslarning atakasi keskinlashdi, o't bo'ronlandi* (208); **Bo'htonlamoq:** - *Bo'htonlama! Undaylardan emas u* (115); **dahshatlanmoq:** *Janglar uchun kun sayin dahshatlandi* (167); **tanbehlamoq:** *Uni yiqilgan yo'g'on daraxtlar orasiga o'tkazdi, lablarini qisib, qo'llari bilan tanbehlaridi: «Yig'lama!»* (109); **hazilvon:** *Bu bilan o'lim hazilvon bo'lib qoldi, - dedi Ali tajang* (22); **serdag'dag'a:** *Terlab-pishgan, serjahl, serdag'dag'a Steklov baqirib-chaqirib, so'kish va do'q bilan vaziyatni tushuntirdi* (19); **g'azabkor:**

*Bular orasida hozirgi paytning mas'uliyatini tushunadigan, dushmanga g'azabkor, ongli jangchilar oz emas (154); **korsoz**: Rus odami yolg'iz botirgina emas, u – korsoz (187).*

Tahlilni shu tarzda davom ettirar ekanmiz, Oybekning so'z qo'llash san'atida bir necha yo'nalishlar ma'lum bo'lib qoladi. Birinchidan, lug'atlarda mavjud, ammo nutqimizda, jumladan badiiy nutqda ham kammahsul hisoblanadigan so'zlarga murojaat qilinadi. Ularga faollik bag'ishlanadi, yangi va qo'shimcha ma'nolar yuklanadi, yashash imkoniyatlari kengaytiriladi (yuqoridagi so'zlar bunga misol).

Ikkinchidan, tilimizda mavjud bo'lgan qoliplar va birliklar asosida yangi so'zlar-muallif neologizmlari yaratiladi: **tabassumlantirmoq**: *Bokira kuch va go'zallikni tabassumlantirgan bu manzarada qondan, ofatdan va iztirobdan ish ham yo'q (107); **hammaydon**: Sen bilan hamtavoq va hammaydon bo'lganlarning bir taloshi endi yo'q (149); Qadim Kremlning salobatiga yarashgan bu ko'krakdor sahnda, sovet xalqining va armiyaning bu muqaddas sharafigohida, Kamolni ulug'vor hislar quchib oldi...(173); **nosxumor**: Nos yo'q yerda zira ne qilsin? – dedi nosxumor usta peshonasini siqib (197); **tangyoqar**: Lekin o'sha tangyoqar panfilovichlarga o'xshasang, u vaqtda germanni biz eltib tiqamiz Berlin ko'chasiga (199); **mahrumiyat**: Ularning deyarli hammasida boshidan kechirgan azob-uqubat va mahrumiyatlarning dahshatli izi ravshan ko'rinardi (125) kabi.*

Uchinchidan, o'ziga ma'qul bo'lgan, yoqtirgan so'z va iboralariga qayta-qayta murojaat qiladi: **on sari**: *Qora balolarning qanotlarida on sari o'sdi, osmonda mash'um sadolarning to'lqini zo'raya bordi (18), To'plar na'rasi on sari kuchaydi (39), ...o'qlar go'yo hid bilganday on sari ko'proq yuksaldi (46), **behad**: kechga yaqin katta qishloq oldida qonli, behad zolim jang ro'y berdi (42), Chekinish yo'li og'ir va behad iztirobli bo'ldi (96) va hokazo (181, 189).*

Yuqorida keltirilgan misollarning biridagi **zolim** so'ziga e'tiborni qaratish ham ma'qul bo'ladi. Chunki u ham buyuk Oybekning qalamida badiiyatning alohida bir namunasidek jaranglaydi: *Ikki kun eng **zolim jangchilar** qaynadi (74),*

Yuzlarcha chaqirim uzoqda tinch, beozor, boy qishloqlardan hayotning zolim ko'rgiligi bir hovuch kul yasaydi (50).

Xuddi shuningdek roman matnida **hadsiz** (208), **benihoyat** (95,110,191), **favqulodda** (42,76,97,211), **topqir** (99,188), **muazzam** (32,102,107,120), **azamat** (25,28,68,101,210) singari so'zlarni ham alohida urg'u bilan ishlatadi. Ular ifodani nafaqat bo'rttirib. Ta'kidlabgina qolmasdan, tasvirdagi nafislik va badiiylik uchun ham xizmat qiladi. Shu narsa e'tiborliki, bu kabi birliklar Oybekning boshqa asarlarida ham o'z shavqini saqlab turadi.

Oybek romanni «Quyosh qoraymas» deb nomladi va shu bilan **quyosh** va **qora** so'zlariga ramziylik ma'nosini yukladi. S.Mirzayev va S.Shermuhammedovlar bu haqda quyidagilarni yozishgan edi: «Romannig g'oyaviy mazmuni uning sarlavhasida ham o'z ifodasini topgan. Oybek romanni «Quyosh qoraymas» deb atash bilan quyosh abadiy qoraymagani singari adolat va haqiqat uchun mardona jang qilayotgan xalqimizni yengish aslo mumkin emas, tarix g'ildiragini orqaga qaytarib bo'lmaydi, degan muhim falsafiy g'oyani ilgari surgan».¹³

Darhaqiqat, adib romanda **qora** so'ziga alohida ma'nolar yuklagan ko'rinadi. So'z matnda turli holatlarda ham alohida, ham birikma tarkibida qo'llangan va har ikki holatda ham uning semantikasida asosan o'zgarishlar yuz bergan, o'z ma'nosida esa kam qo'llanilgan.

1. O'z ma'nosida, predmetlarning rang-tusini ifodalashda, real manzaralarni chizishda, ularni biroz bo'rttiribroq, badiiyoq qilib tasvirlashda ishlatilgan: *Uzoqda, ko'zga xira chalingan tepalikning orqasida, qora, quyuq tutun burqib havoda kezardi* (36). Roman matnidagi **qora shisha** (76), **qora-qizil olov** (54), **qora dud** (88), **qora chiroq** (91), **qora ko'z** (141) birikmalarida ham xuddi shu o'lchov saqlanib turadi.

Bu kabi birikmalar ayrim o'rinlarda o'xshatish uchun asos bo'lgan: *Gitler ana shu quyoshni qora bulutday o'ramoqchi* (71), *Ko'kragiga avtomatlar osgan o'lchovli odimlar otib, qora bulutdek masofani qamragan qalin fashist to'lqini*

¹³ Mirzayev S.,Shermuhammedov S, Hozirgi zamon o'zbek adabiyoti tari xi. –Toshkent 1993-yil. 174-bet.

kelmoqda (75), *Endi u sirti qora tog‘day, ichi yop-yorug‘ va shovqinli zavodda ko‘k bluzali, yenglari shimirilgan, qalin jingalak sochlarini bosh orqasiga **qora kalavaga o‘xshatib** o‘ragan qizni stanok oldia g‘ayrat bilan samimiyat bilan ishlayotgan holda ko‘radi* (197).

Yuqoridagi singari misollardan yana shu narsa anglashiladiki, **qora** so‘zida hamma vaqt ham matnda lug‘atlarda nazarda tutilgan leksik ma’no-qoralikning eng to‘q ko‘rinishi nazarda tutilayotgan emas, nomlanishida ma’lum shartlilik mavjud bo‘layapti va shu yo‘l bilan ular aniqlovchisi bo‘lib kelayotgan so‘zlarning belgi xususiyati, ko‘rinishlari bo‘rttirilmoqda. Ularda subektiv munosabat ham seziladi: *Uzoqda, dushman atrofida, **qora**, dudli tuproq – minoralari havoga ko‘tarildi* (49-bet). *Uzoqda **qora** tanklar paydo bo‘ldi* (39). ***Qora** tuproq uyumlari uchdi* (79).

Yana bir misol: *Bombalar katta ochgan **qora** chuqurlar orasidagi bir yig‘im tuproq va ko‘l qarshisida bir bola bilan ayol boshlarin og‘ir egib ko‘tardi* (34-45). Bunda, nazarimizda. **Qora** so‘zi shunchaki tasvir vositasi emas. Unda mudhishlik, qo‘rqinch va urushga bo‘lgan nafrat kabi qo‘shimcha ma’nolar ham seziladi.

2. Ko‘chma ma’noda, ko‘pincha metaforik birikma tarkibida epitet bo‘lib keladi. Mana bularning ayrim namunalari:

a) g‘ira-shira ko‘ringan sharpa, ko‘lanka ma’nosida: *Fashistlar g‘azablanib bu **qoraga** zumda o‘t ochardi* (78). *Bektemir o‘q uzdi. **Qora** yiqildi* (87).

So‘z shu ma’nosi bilan asar matnida **qorasi o‘smoq** (41), **qorasi ko‘rinmoq** (102) frazeologizmlari tarkibida ham kelgan;

b) qo‘rqinchli, dahshatli ma’nosida: *Ko‘chalarda askarlar, har yoqda g‘izillagan harbiy mashinalar ko‘p bo‘lishiga qaramay, bu yerda urushning **qora vahimasi** oz sezilardi* (27);

v) kechasi, qorong‘ilik ma’nosida: *Samoning **qora chodirini** har yoqdan o‘t yamlardi – uzoqda qishloqlar yonardi* (98);

g) yomonlik, yovuzlik ma’nosida: *Fashist yomon. U olabo‘ji. – U uchadi-a? -Ha, yerda yuradi, osmonda uchadi. **Qora qanoti** bor.* (123);

d) dushman samolyotlari ma’nosida: ***Qora balolarning** qanotlari on sari o‘sdi, osmonda mash‘um sadolarning to‘lqini zo‘raya bordi* (18). *Tanklar g‘oyib*

*bo'lishi bilan ufqni yana **qora qushlar** galasi tutdi (20). Bir zumda **qora qushlar** Bektemirning tepasida charx ura boshladi (23).*

Bu metaforalar metaforik o'xshatish shaklida yana dushman samolyoti sifatlarini kengaytiradi: Otishma uzoqlashgach, ular yo'lga chiqib, qay tomonga borishni bilmasdan yurisharkan, o'rmon orqasida, nogahon dushman samolyoti qora baloday vang'illab chiqdi (126), Bir pasda qora girdob kabi tepada aylandi (20);

y) dushman, fashist ma'nosida: *Partizanlar bo'sh turmas, qariyb har kun **qora qushning** patini yulardilar (170).*

Ko'rinadiki, Oybek **qora qush** birikmasini metafora sifatida ikki ma'noda qo'llaydi. Shu ma'nodagi so'zga epitet ham bo'lib keladi: *Yo bo'ysun, yo o'l deydi nemis. Bachchag'ar juda **qora yov** (140).*

Mana bu misollar esa adibning **qora** so'zi ma'nolarini kengaytirishning, tasvirning obrazli ifodasiga aylantirishning eng yaxshi namunalaridir: *Lekin ko'z oldini g'azabning **qora dudi** bosdi (63), U yettinchi noyabrda butun sovet xalqining yuragiga g'amning **qora zahrini** qo'yib, Moskvada, qizil maydonda tantana qilmoqchi edi (180).*

Qora so'zidan yasalgan **qoraymoq** fe'li ham bu birlikning ma'nolarini kengaytirgan:

a) **Qora tusga kirmoq** ma'nosida: *Shox-shabbalari uchgan, yong'indan qoraygan o'rmonlar tuman orasida vahm bilan sukut saqlardi (36);*

b) **kech bo'lmoq-kun botmoq** ma'nosida: *Nadya butun fikrini, sezgisini ishga solsa ham, shu onda kun qachon qorayganini eslay olmadi (133);*

v) **qorong'ilashmoq** ma'nosida: *Uning ko'z oldi qoraydi (207).*

Tahlildan ma'lum bo'ladiki, qora roman matnida o'zining barcha leksik-semantik va usulbiy imkoniyatlarini ham ro'yobga chiqara olgan emas. Lekin undan foydalanishda asar, qolaversa, Oybek uslubiga xos jihat namoyon bo'lib turibdi. Bu jihatni sharhlash uchun roman voqealarini ko'z oldimizga keltiraylik: Urush manzarasi, hammayoqda jang ketmoqda. Dushman hujum qilmoqda. O'lim dahshati har lahzada xavf solmoqda. Ana shunday holatda bu so'z alohida mazmun

kasb etgan: Tutun qora, olov qora, bulub qora, tog‘ qora, tuproq qora, chuqurlar qora, chodir qora, samolyotlar qora qush, qora girdob, qora balo bo‘lib ko‘rinadi, hatto vahima qora, yov qora, askar g‘azabi ham qora dud chiqaradi, g‘am ham qora zahrin sochadi.

«*Qora*» so‘zli birikmalarni ketma-ket tizar ekanmiz, bu so‘z zimmasidagi mas‘uliyat yana ham aniq bo‘lib qoladi. So‘z dushman va u keltirgan ofat timsoliga, o‘lim va yo‘qlik timsoliga aylanadi. So‘zdagi ma’nolarni shu tarzda tushuntiradigan bo‘lsak, asarning nima uchun «Quyosh qoraymas» deb nomlangani yana ham oydinlashadi! Bu gapning ma’nosini to‘la anglab yetamiz.

Asar personajlaridan biri kapitan Hamroqulovning gaplari bilan ushbu so‘z atrofida aytilgan mulohazalarga yakun yasasak bo‘ladi: *O‘zbek xalqi endigia quyoshli yo‘lga chiqqan edi. Gitler ana shu quyoshni qora bulutday o‘ramoqchi. Yo‘q, chuchvarani xom sanaydi, xomkalla! (71)*

Har bir xalqning, millatning ma’naviy xazinasi hisoblanmish maqollarga murojaat qilish ushbu asarda ham bor. Ammo ularning ko‘pchiligining romanda ishtiroki o‘zgacha. Nazarimizda, har biri aniq bir mo‘ljal bilan keltirilganki, bu, birinchi navbatda. Roman mavzusi bilan bog‘liq. Ular asosan asar personajlarining urush hayotini, maslagini, e’tiqodini, dunyoqarashini mujassam qiladi. Shuning uchun ham aksariyat qismi qahramonlar tilida berilgan.

Bir qishloqda adashib qolib, dushmandan yashirinib yotgan Ali tajangning o‘ylaridan: *Yana soppa-sog‘ bo‘la turib, dushmanga o‘zini topshirishni nomardlik hisoblardi. Otang-el, onang-el. El qay tomonda bo‘lsa, kishi shu tomonda bo‘lishi kerak (162).*

Maqollarning bir qismi esa milliy, o‘zbekona. Asqar polvon bilan Ali tajang o‘rmonda adashib qolishgan: - *So‘rab-so‘rab makkani topganlar. Oyoq butun, asta jilaveramiz, - dedi u chang va is bilan qoplangan mo‘ylovini burab (24).* Asqar polvon suhbat davomida dono gaplar ham aytib qo‘yadi: *Taqdir shunday kuchliki, toshdan bo‘lsang ham cherti yoradi seni! Urushda azroil ham juda berahm, aziz joningni aldab-suldab sug‘urmaydi (24).* Ali tajang deydi: *to‘qayga o‘t ketsa, hulu quruq baravar yonadi (26), kerakli toshning og‘iri yo‘q (26), choyxonasiz joy –*

yengsiz choponday xunuk (29). Bektemirning nutqida: *qiriq yil qirg'in bo'lsa ham, ajali yetgan o'ladi* (10), *kafan kiygan ketadi, kafanlik kiygan keladi* (148), *qo'rqmas qirq yil qirg'inda yursa, qilich o'tmaydi* (210).

Biz ko'pchilik badiiy asarlarni o'qiganimizda, odatda, keltirilgan maqollarning suhbat mavzusiga mosligini kuzatamiz. Ammo ularning Oybek qalamida ma'lum tematik yo'nalishga bo'ysundirilishi ibratlidir. Asarda urush voqealari hikoya qilinmoqda. Tabiiyki, asosiy suhbat mavzusi hayot va o'lim haqida, botirlik, qahramon va qo'rqoqlik, xiyonat haqida, dushman va do'st haqida bo'ladi. Shuning uchun ham, yuqoridagi kabi mana bu maqollar ana shu insoniy tuyg'ularni kengroq ochishga qaratilgani aniq. Ahmedov: *mardga o'lim yo'q* (11); Kulumet ? : *botirdan o'lim ham qochadi* (15); Muallif: *O'qsiz soldat qilichsiz qin* (41); Hoshimjon: *Qonga – qon, jonga – jon* (161);

Roman matnida *qallobning yuzi qora* (51), *yetti o'lchab bir kes* (135), *yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas* (195), *shoshgan o'rdak ham boshi bilan sho'ng'iydi, ham dumi bilan* (177), *tilakli yigit-qanotli yigit* (11) singari umumiy mazmundagi maqollarga ham duch kelamiz.

Shu bilan birga, Yashkin bobo tilida uchragan *rusning tovug'i nemisning xo'rozini qochiradi* (135), general nutqidagi: *Bir narsa borki, usiz hamma tayyorlik – bir chaqaga arzimaydi. Bu jangchining yuragidagi o't, ruhning tetikligi. Bu narsa, o'zing bilasan, urushning otasi. Bu bo'lmasa, bamisoli boltang bor – sopi yo'q, to'y tayyor, kuyovjon yo'q* (154), Asqar polvonning gapidagi so'z o'yiniga o'xshab ketadigan: *Bekorga «ura» deb, g'urra olishni istamaydi* (149) tarzidagi aforistik ruhdagi iboralar ham nafaqat g'oyaviylik, shu bilan birga badiylik va obrazlilikka hissa bo'layotganligi ham ma'lum bo'lib turadi.

«Quyosh qoraymas»dagi maqollar va aforistik xarakterdagi iboralar miqdor jihatidan ko'p emas va ular asar mavzusi, g'oyasi va qahramonlar ruhiyatidan tashqariga chiqmaganligi bilan ajralib turadi.

Biz Oybekning sinonimlarni, so'z va qo'shimchalar variantlarini qo'llashida xuddi ana shu holatni kuzatamiz: *samo* (94) – *osmon*; *kulka* (142) – *soya*; *bo'g'ishma* (74) – *jang*; *o'choqlar* (75) – *o't ochish nuqtalari*; *siyrak* (27) – *oz*,

kam; toza kuch (90) – *qo‘shimcha kuch; qisqa* (94) – *kalta; ayyorcha* (135, 156, 170) – *ayyorona; o‘lchovsiz* kabi.

Afsuski, ularni sanab o‘tish bilan matndagi badiiy imkoniyatlarini, obrazlilik uchun qay darajada xizmat qila olganligini to‘la ko‘rsatib bo‘lmaydi. Ularning ayrimlarini keltirish bilan chegaralanamiz: ***Bo‘g‘ishma-jang:*** *Okoplarda, blendajlarda qizg‘in, omonsiz, haddan tashqari qonli va dahshatli bo‘g‘ishmalar qaynardi* (74); ***ayyorcha-ayyorona, ayyorlarcha:*** - *Yo‘q, kechirasiz, ojizlik ko‘rsatayotir,-dedi chol ayyorcha kulib* (135);

Ayrim o‘rinlarda biz sinonim sifatida qarayotgan so‘zlarni Oybek ne darajada aniqlik bilan, ma’lum bir holatning nozik ifodasi sifatida qo‘llaganini ko‘rib hayratlanasiz: ***garanglanmoq-garangsimoq-gandiraklamog:*** *Ko‘p jangchilar garanglanib, oyoqda tura olmasdilar* (87); *qazinish-qazish; kovlash: Jangchilar yana hujumni kutib chuqurroq qazinishga, o‘zlarini yaxshiroq yashirishga urindilar* (53).

Yuqoridagi gaplar tarkibidagi ***garanglanmoq*** va ***qazinmoq*** so‘zlaridagi keng va shu bilan birga aniq ma’noni, nazarimizda, uning sinonimi bo‘lgan hech bir so‘z beraolmasligi mumkin. Chunki, gandiraklash garang bo‘lishdan keyingi hodisa, garangsish esa ko‘pincha eshitish bilan bog‘liq. Qazinmoqdagi ***–in*** qo‘shimchasi esa o‘zlik darajasini hosil qilmoqda, bu bilan ma’no umuman qazish yoki kovlashga emas, balki o‘zi uchun, o‘ziga chuqur, okop kovlashga kelib taqalmoqda.

Xuddi mana shunday holatlarda buyuk so‘z san’atkori bo‘lgan Oybekning tilga bo‘lgan e’tibori va undan foydalanishdagi mas’uliyati va mahorati yana ham aniq seziladi.

Romanda badiiy ifodalangan, obrazli tasviriy vositalarga murojaat qilingan, jonlantirish usulidan foydalanilgan o‘rinlar juda ko‘p. Ammo ular hamma vaqt ham muvaffaqiyatli qo‘llanganmi? Jang paytida o‘rmonda ketib borayotgan ikki soldat o‘zbek qishloqi yigitlari Asqar polvon va Ali tajanglarning nutqiga e’tibor beraylik:

- ...Urushda azroil ham juda berahm, aziz joningni aldab-suldab sug'urmaydi. Bir urib qo'l-oyoqlarinigni uchiradi. Bir zarbasi bilan boshing daraxt tepasida...

- Ko'zlaring uzilgan tanangga qarab baqrayadi! – qo'shib qo'ydi Ali tajang xirillab.

-Imm...-ichidan ingradi Asqar polvon. –Bektemir qayoqda? Safarga nima bo'ldi? O'lim to'zonlari ko'zlarimizni ko'r qildi.

-...Rostini aytsam, polvon, taqdir ham chippakka chiqqan! – dedi Ali tajang jahl bilan. - ...Mina bilan snaryad degan balo taqdirning temir qo'rg'onini ham yorib o'tadi (25).

Personajlar nutqining ham bu tarzda obrazli ifoda etilishi yaxshi. Ammo oddiy qishloqi o'zbek yigitlarining bu usulda balandparvoz va jimjimador gapirishlariga unchalik ishonib bo'lmaydi?

O'xshatishlar urush manzarasini, uning ishtirokchilari holatini to'la tasvir ettirish uchun keltirilgan. Ularning miqdori ko'p emas. Ammo aytish mumkinki, a'anaviy ham emas. Asosan milliylik va subektiv baho suzilib turadi.

Fashistlar **kalxatlarga** (54), **«safar qochdi» qilingan kuchuklarga** (61), **itga** (121), **ovoz chiqarish itning vovullashiga** (114), **hurishiga** (118) o'xshatiladi. Pulemyotning tarillashi ham **serjahl kuchukbachchaning akillashiga** qiyoslanadi (16). Frontda bir-birin tez-tez ko'rib turmasa, o'zbeklar bunday gap qilishadi: *Ammo senlarni ko'rmasam, nosvoydek xumor qilasanlar, azbaroyi xudo!* (64) Mana bu o'xshatish esa nihoyatda tabiiy, urush hayotiga mos tushgan: - *Sen yoz, temircham,* - *dedi polvon,- men yozsam, harflar xuddi nayzadan qochgan fashistday safdan chiqib ketaveradi* (73).

Oybek tomonidan nihoyatda shoirona va mohirona qo'llangan o'xshatishlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: *...jangchilar duzaxning o'tyoqar, o'tkovlar shovvozlari kabi, favqulbashar g'ayrat va g'azab bilan ishlardilar. Minalardan, snaryad va bombalardan yerning ko'ksi lo'lining chirmandasidek yirtildi* (74). *Minalar, snaryadlar zarbidan pastak uylar tegirmon toshi ostiga tushgan*

yong'oqday ezilardi. G'ishtin binolar og'ir bolg'a bilan chaqilgan toshday ushaladi (206).

Shuningdek, asar matnida *xat vinoga* (69), *Bektemirning shiddati uloqchi otga* (78), *qarashlari tog' qushiga* (60) va hatto, *sergakligi yumronqoziqqa* (54, 86), *qorning g'ijirlashi moylanmagan aravaga* o'xshatilishi kabi o'rinlar ham borki, ular asarning o'qimishli chiqishiga, o'quvchi badiiy tafakkurining, fikr-mushohada doirasining keng bo'lishiga, romandagi tasvirni atroflicha, barcha tafsiloti bilan anglashga ko'maklashgan.

Oybek epitetlari ham o'ziga xos. Biz tahlil jarayonida «o'ziga xos» iborasidan qanchalik qochishga harakat qilmaylik, har qadamda faktlar uni tasdiqlab turibdi. To'g'ri, «Quyosh qoraymas»da *sassiq so'z* (146), *vazmin qadam* (205), *mo'jizakor kuch* (182), *shifobaxsh so'z* (211), *g'ussa changi* (57) singari ohori to'kilmagan, ammo an'anaviy, badiiyatimizda bor bo'lgan epitetli birikmalar uchraydi. Ammo e'tiborli tomoni shuki, romandagi epitetlarning aksariyati original, Oybekniki. Uni boshqa hech bir ijodkor xuddi shu tarzda yana qo'llay olmasligi mumkin: *Xumraygan daraxtlar* (88), *buyuk g'azab* (181), *manxus sado* (75), *ko'krakdor sahn* (173), *muqaddas sharafgoh* (173), *bujraygan dala* (55), *miyiqsiz yigit* (98), *mehnatda qayrilgan kuch* (33), *anvo musibat* (132), *do'lvor dehqon* (185), *tetiklovchi ovoz* (150) kabi. Ularning ayrimlarini matn tarkibida keltiramiz: *Mayorning arpa bo'yi dag'al soqol bilan qoplangan, kirroq ko'ringan yuzidan kinoyali qiyshiq tabassum bir oz o'chdi* (189); *Yodimda bor, urushning ilk haftalari edi. Tun – tun qiyg'os jang* (194); *Kamol qayerdan chiqmasin, beixtiyor ko'zlarini girdoblanib ko'tarilgan paxmoq olovga tikardi* (196); *Kamolning burgutlari, hamma sovet to'pchilari singari har yerda, har qachon dushmani olov bo'roni bilan qarshilab ajoyib, mu'jizador jonbozlik ko'rsatardilar* (194); *Biroq samolyotlar balodor yuklarni aniq «tartib» ham «vazn» bilan ag'darib, yangi yuk uchun balandlashib jo'narkan, nogahon qandaydir qizil yulduzli samolyotlar o'qday uchib keldi* (54); *Allaqanday xayoliy, qo'rqinchli, bosiriqli kecha...*(45); *Bular orasida, siz aytgandek, loyqaroqlar ham uchrab qoladi. Biroq ko'pchiligi urush gardini ko'rgan kishilar* (154). (Ayrim epitetlarni, masalan, *chizi-chizi moy*

(77), **bosiriq-bosiriqli kecha** (45) soʻzlarini butunlay Oybekka xos deyish mumkin. Ular adibning bir asaridan ikkinchisiga koʻchib yuradi. (Ularni «Nur qidirib» povesti, «Oltin vodiidan shabadalar» romanida ham uchratamiz).

Oybek uslubiga xos boʻlgan tabiat manzarasining nafis tasviri dahshatli urush voqealari hikoya etilayotgan paytlarda ham yozuvchini tark etmaydi. Ijodkor yaratgan qahramonlar qanday holatda boʻlmasin, insoniy munosabatlardagi va tabiatdagi goʻzalliklarni tuyib turishadi. Oltin soʻzi asosida yaratilgan birliklar esa ularga uygʻun: *Quyosh bulutlar orasidan, ora-sira moʻralar, sargʻaygan daraxtlarni bir zumgina oltinlatib, eringandek, yana bulut koʻrpasiga choʻlgʻardi* (71). *Bektemir homuza tortib uvishgan oyoqlarini siladi. Ruhni qanoatlantiruvchi charaqlagan oltin janrlarni esladi* (82). Bektemir yaralangan. Bir necha yaradorlar bilan sanbatga boradi: ***Chiroqda oltinlangan sochlari qirqiq, lekin siqib oʻrilgan oq roʻmolcha tagida ikki chakkasida soch tolalari koʻrkam salqib turgan semiz, doʻndiqqina bir qiz u bilan ovora boʻldi*** (56). Bu garchi yozuvchi tasviri boʻlsa-da, shu bilan birga Bektemirning ham nigohi. Yana bir misol: *Oʻrmondan topib olingan Zina bilan Bektemir oʻrtasidagi suhbatdan: Hozir nima yeymiz?- soʻradi qiz **oltin kiprikli, zangori koʻzlarini** javdirttib. –Hozirmi? Uxlaymiz...* (104) Yana yuqoridagi gaplarni takrorlashga toʻgʻri keladi. Jang maydoni tasvirida ham yozuvchi oʻz uslubidan chekinmaydi: *Choshgohdan soʻng havo ochildi. Kuz quyoshida **yaproqlar oltinday mudrardi**. Qayrdandir, oʻrmon ortidan qalin tutun burxsib koʻtarildi. Koʻkda dushman bombardimonchi samolyotlari gola-gala izgʻirdi. Jangchilar oyoqlarini baʼzur sudrashardi* (120).

Bu, nazarimizda, Oybekning oʻz qahramonlariga, tabiat tasviriga alohida eʼtiqodi, ifodadagi oʻz uslubi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, asar qahramonlari va tabiat, xususan, Oʻzbekiston tabiati uygʻunligi asarda juda koʻp sezilib turadi. Zero, buyuk soʻz sanʼatkori boʻlgan Oybekning ham buni juda-juda istaydi. Agar shunday boʻlmaganda edi, Oʻzbekiston mayizi ham oltingi qiyoslanmasdi: *Kamol baquvvat yigitlari bilan yongʻoqlarni qars-qurs chaqib, **oltin rangli barmoqday-barmoqday mayiz** bilan yeya boshladi* (175).

Ma'lumki. Yaqin yillargacha yozilgan adabiy asarlar kommunistik g'oyalar ruhida yozilishi lozim edi. Uning qanchalik to'g'ri-noto'g'riligini tahlil qilish, unga munosabat bildirish bizning vazifamizga kirmaydi, albatta. Har holda, romanda Oybek ijtimoiy munosabatlarning shu tomoniga jiddiy e'tibor bergan va asar tilida xalqlar o'rtasidagi do'stlik, sovet kishilarining vatanparvarligi bilinib turadi. Zero, mustaqillik davri uchun ham, o'z davri uchun ham ahamiyati katta:

To'g'ri, Bektemir aka, - deya gapga aralashdi toshkentlik bir yigitcha. –Har yerda bir o'lim bor. Ammo men boshqa narsa demoqchiman: biz hammamiz bir otaning bolasimiz, ya'ni o'zbeklarmiz...

Yo'q, sen o'zbeklarni ajratma, butun sovet askarlari bir oila. Ahil, mehribon va qalin do'stimiz.- dedi Bektemir ranjigan ohangda.

Balli, bu gap ma'qul,- dyedi Asqar polvon yengillanib (10).

Qishloq maktabida yettinchi sinfni bitirib, paxtada ishlagan, sal o'tmasdan havas bilan cho'ponlik qilgan, shaharda o'qishni istamasdan qochib ketgan Bektemirning nutqiga e'tibor qarataylik. U hatto toshkentlik yigitning gapidan ranjiganday bo'ladi, o'zining fikri esa siyosiy komissarlarning, partiya xodimining qarashlariga o'xshab ketadi. Asqar polvon ham bu gapdan yengil tortadi.

Bunday o'rinlar «Quyosh qoraymas» yana bor:

Dubov: Men uzoq Sibirdan bola-chaqam, xotinim bilan xayrlashib chiqqanimda ordenni o'ylabmanmi? Men yolg'iz o'z yerimni, sovet yerimni o'ylagandim... Uning niyati yomon, Moskvaga ketayotir. Bilasanmi, yurakka chang solmoqchi... Moskva - rusning yuragi-ya.

- To'xta Dubov, - dedi Bektemir xumrayib. – Nega rusniki? O'zbekni nega chetga qoqasan? Moskva – o'zbekning ham onasi!... Mana men, tog'da yashardim, kolxozning minglab qo'yi ixtiyorimda edi. Og'zim moy, qo'lim moy. (48-49).

Yana Bektemirning nutqidan:

- ... Gitler sovet daraxtini qulatmoqchi. U baltani naq tuk ildiziga urayotir. Ildiz rus xalqi. Biz manna shu ildizni saqlashimiz kerak (67). ... Hozirgi ruslar tamom boshqa jonda rus ... Bular ... barcha xalqlar uchun bir xil turmush, bir xil zakon, bir xil maqsadni bular o'ylab chiqardi, amalga oshirdi(67).

Muallif nutqida: *Nadya pishiq va tuyg'un qizcha edi. U hamma sovet bolalari kabi erkin, sho'x, jasur bo'lib o'sdi*(130). *Uning yuragida qo'rquv emas, xo'rlangan ona yurtining dardi, mag'rur sovet odamining or-nomusi mavjladi*(152).

Har holda bu gaplar hozirgi kitobxon uchun biroz dabdabaliroq tuyuladi. Ammo bir adolatli savolga javob beraylik: aksariyat umrni ta'qibda, asarlaridan g'oyaviy nuqson izlanib o'tgan Oybekdek adib bundan boshqa yana qanday yozishi mumkin edi? Yana bir narsa sir emaski, bu kabi gaplarni bundan o'n yil oldin payqamasligimiz, payqaganimizda ham undan kamchilik izlay olmasligimiz aniq edi.

Oybek romanda juda katta jabhada ketayotgan urush voqealarini, unda ishtirok etayotgan barcha millat vakillari hayotini aks ettirish jarayonida asar bosh qahramonlari o'zbek jangchilari ekanligini bir daqiqa ham yodidan chiqarmaydi. Ularning faoliyatlarini jangda ishtirok etayotgan barcha millat vakillari harakatlari, yumushlari bilan uyg'unlikda olib borsa-da, o'zbek jangchilari hayotini milliy his-tuyg'ulardan, harakatlardan, munosabatlardan, urf - odatlar va e'tiqodlardan mahrum holda olib tasvirlamaydi. Ular o'z vatanlaridan yiroqda, boshqalar bilan bab-baravvar urush uqubatlarini boshlaridan kechirayotgan bo'lsalar-da, o'zbekona turmush tarzi ularga hamqadam. Ana shu milliylikni ifoda etuvchi ayrim o'rinlarni namunalar keltiramiz:

Otangga rahmat, lekin agar birontamiz baloyi najhonga uchrasak, xudo ko'rsatmasin, boshqalarimiz darov chuqur qazib, albatta yuzini qiblaga qaratib, yerga jo qilaylik. Janoza yo'q, kafan yo'q. Yana yerning ostiga bir parcha chuqurdan chetda qolmaylik. Suyak tinch, arvoh tinch... _ dedi Ali tajang(10).

Asqar polvon bilan Ali tajang o'rmonda ketib borishmoqda.

-Kolxoz oshxonasidagi uzun sarrov esingdami?- so'radi Ali tajang shavqlanib.

-Akanizni yelkasidan tomga qo'ngan u, - javob berdi Asqar polvon.

-Ish daraxtining ukasi u, - dedi Ali tajang.- Qani bularni kesib, oynaday silliqlab, imorat ko'rsat. ...(25).

-Agar shu daraxtlarning mingdan biri olma, nok bo'lsami, rusiyaning yeri jannat bo'lardi, - dedi Asqar polvon salmoqlanib va pastga yugura ketdi(26).

-Bilsang, bir mina «paq» etib boshimga tegdi, yo'q, boshim g'urra bo'ldi-ku, lekin sog' qoldim. Mana, ko'rdingmi buni, kolxoz temirchisi Axim ? Oxunning yuziday qiyshayib ketibdi. - Ali tajang bir tomoni ichiga botgan kaskasini qo'lga oldi-da, boshining qurrasini silab- silab, yana uni ko'zigacha tushirib kiydi (26).

Ali tajang xunob bo'ldi:

- Shaharning fasoniga zo'r berishibdi-ku, choyxonani unutishibdi-da.

-Rus xalqi choyni uyida. Samovar qo'yib ichadi - dedi Polvon afsuslanib.

-Choyxonasiz joy - yengsiz choponday xunuk...-dedi Ali tajang (20).

-Ana, patifon ham bor ekan, - dedi u qo'li bilan ishora qilib._Choydan keyin bir eshitsak. Birdan Halimaxonim qo'ling o'rgilsin bir ashulani kuylab yuborsayya! (30).

Shineli tovonigacha tushgan, ko'rimsizgina jangchi, Ali tajang ham, bel, miltiq va boshqa jangovor buyumlarni eplay olmasdan qiyna uchuvchi bahaybat Asqar polvon ham kelib o'zbyekcha cho'qqayishdi (37).

Ali tajangning sarg'ish mo'ylovi titrab ketdi. Qo'ltig'idan qag'ozga o'ralgan, qurib talqonlangan nosini olib, til ostiga otdi (38).

Ali tajang hazilni payqamay, birdan yonib ketdi-da, Katta Farg'ona kanalini esladi:

- Uchqo'rg'onda yer metin. Hapqat ketmonni uraman, yer toshday sachrab ketadi. Yo'q, baribir sal paytda normani bajarib, yana bir necha kubometr oshirmaga urinib qo'yaman. Ana shu, mana kuch (45). Balandlikda kichkina mozar paydo bo'ldi. Asqar polvon cho'qqayib, ichida «Qulhuvollohu ahad»ni uch marta takrorlab, fотиha o'qidi. – Kecha, bugun o'lgan hama o'zbeklarga bag'ishladim, - shivirladi Polvon (89).

Cho'pon yigit (Bektemir) uzilgan shirin tushni yana bir on bo'lsin ko'rish umidida ko'zlarini yummoqchi bo'ldi, lekin birdan iljaydi: «Tushida xo'rozini sotolmay dog'da qolgan Xo'ja Nasriddinga o'xshab ketdim-ku!», - dedi ichida.

Bektemir frontda yurib nafaqat yaqinlarini, shu bilan birga, tugʻilib oʻsgan qishlogʻini, yoshlikdagi, harbiy xizmatga qadar kechmishini ham tez-tez koʻz oldiga keltirib turadi: *Bobolardan qolgan qurgʻonday kattachorxari ham, uch yil burun solingan ramlari, ayvon, yangi xonalar ham, gʻarq pishganda laziz va shifokor mevasining suvi chak-chak tomishga tayyor turgan hovli oʻrtasidagi shotut ham, paxsa devorlariag gʻuj-gʻuj tappilar va chambaraklardagi, qovoqlardagi sut-qatymoqlar ham koʻzlariga koʻrinib ketganday boʻldi* (9). *Bektemir qoʻlbola nosdan bir chimdim til tagiga tashlab, keyin tupurdi.*

- *Tezaknamo-ku, - dedi Bektemir xoxolab.*

- *Choʻponsan-da. Tushingda ham qoʻyning qoʻshalogʻini koʻrasan... – koyidi Ali tajang*(64).

Keltirilgan misollar romanda milliy koloritni, mahalliylikni ifoda etishga, shu bilan birga samimiyat va obyektivlikni ifoda etishga xizmat qiluvchi dalillardir. Shu oʻrinda yana bir gapni aytib oʻtishga toʻgʻri keladi. Oybek asardagi ayrim personajlarning siyosiy jihatdan toblangan ekanligi, dunyoqarashi keng ekanligini taʼkilash yoʻlidan borib, ularning nutqini shakllantirishni biroz oshirib yuborgan koʻrinadi. Asqar polvon va Ali tajang oʻrtasidagi suhbatdan parcha keltiramiz:

- *...Eh, peshona! Taqdir shunday kuchliki, toshdan boʻlsang ham bir chertib yoradi seni! Urushda Azroil ham juda berahm, aziz joningni aldab-suldab sugʻurmaydi. Bir urib qoʻloyoqlaringni uchiradi. Bir zarbasi bilan boshing daraxt tepasida...*

- ***Koʻzlaring uzilgan tanangga qarab baqrayadi!*** – *qoʻshib qoʻydi Ali tajang xirillab.*

- *Immm... – ichidan ingradi Asqar polvon. - ...Oʻlim toʻzoni koʻzlarimni koʻr qildi.*

- ***...Mina bilan snaryad degan balo taqdirning temir qurgʻonini ham yorib oʻtadi*** (24-25).

Biz personajlar nutqidagi ushbu gaplarning badiiy adabiyot namunasi ekanligini, unda qahramonlar tilini individuallashtirishning oʻz yoʻllari borligini

unutmasligimiz lozim, albatta. Ammo oddiy qishloq yigitlari Asqar polvon va Ali tajanglarning nutqini kapitan Hamroqulov, leytenant O‘rinboyev, o‘qituvchi Hoshimjonning nutqiga tenglashtirib qo‘yish ham unchalik to‘g‘ri emasday tuyuladi.

Ma’lumki, Oybek nafaqat yozuvchi, u shoir, olim, mutafakkir hamdir. Shuning uchun albatta, uning asarlarini o‘qir ekanmiz, adibga oid barcha xislat va fazilatning, mavzuga oid jamiki ilhom va mushohadalarning mujassami bo‘lgan holatlarni ko‘p kuzatamiz.

Adib badiiy ijod jarayonida aksariyat o‘rinlarda voqealar tafsilotiga qisqa-qisqa yakun yasab o‘tadi, mantiqiy xulosalar bayon qiladi. «Quyosh qoraymas»dan bir manzara – dushman bilan to‘qnashuv kartinasini olaylik. Oybek nazarida urushning bor-yo‘q falsafasi, oqibati mana shu: *Dushmanga yaqinlashish! Oradagi masofa – tamom boshqacha masofa. Bu na dushmanga, na bizga tegishli. Bu o‘lim maydoni, buning samosi ham, yeri ham o‘lim bilan nafas oladi. Bu yerdan odam dengizi quturib oqadi. Uning girdoblari to‘ymas, zolim, beomon ishtaha bilan hayotni yutadi. Bu yerda hayot hayotni bug‘adi, temir temirni g‘ajiydi, o‘t o‘tni so‘ndiradi – hamma narsa **mavhiyotga** ? intiladi. Minglarcha chaqirim shimolga yur, minglarcha chaqirim janubga yur – odam saltanatidasan... Biroq bu muazzam maydonning mutlaq hokimi – o‘sal, yovuz, buzg‘unchi kuch uchun o‘z sohasi go‘yo torlik qiladi. Tinimsiz **yutdigi** daryo-daryo qonlar go‘yo uning **jahannam chanqovi** uchun bir tomchi; **g‘ajidigi** shaharar uning tishlari orasida qolgan...(50).*

Roman matnida kundalik hayotimizda deyarli ishlatilmaydigan **ajava/aji** (73,50), **arin** (92), **jinqirtob** (34), **komod** (136), **kumrol** (130), **sardona** (33), **chuchala** (34,61), **yaksanoq** (111), **qivralmoq** (127), **g‘oval** (101) singari so‘zlar ham uchraydi. Ulardan **ajava**, **komod**, **sardona** so‘zlari «O‘zbek tilining imlo lug‘ati»da, **ajiva** va **jing‘irtob** so‘zlarining ma’nolari ¹⁴Xarakterlisi shundaki, bu ikki so‘zning sharhi uchun misollar aynan Oybekdan – «Oltin vodiidan

¹⁴ «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da berilgan (O‘zbek tilining imlo lug‘ati. -T., 1976; O‘zbek tili izohli lug‘ati, I tom. –M., 1981).

shabadalar» va «Quyosh qoraymas» romanlaridan olingan. Qolgan soʻzlar esa biz koʻrgan lugʻatlarda uchramadi.

III bob

Ishning amaliyotga tadbiqu

Oybek ijodi XX- asrning 30-yillari oʻrtalaridan boshlab umum-taʼlim maktablarining adabiyot darslarida muntazam ravishda oʻrganilib keladi. Ayniqsa Oybek Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasiga haqiqiy aʼzo boʻlib saylangani (1945) tayinlangani hamda turli mukofot va martabalarga erishganidan keyin uning ijodi qadr-qimmatini topib, maktab adabiyot dasturlaridan mustahkam oʻrin egalladi. Shuning uchun ham bugun barhayot boʻlgan katta avlod vakillari Oybekva ijodini oʻqitish ishlari aslo susaymasligi kerak. Negaki, Oybek ijodi XX-asroʻzbek adabiyotining nurli choʻqqilaridan biri, uning qalamiga mansub ”Qutlugʻ Qon ” va ”Navoiy” romanlari, sheʼr va dostonlari, adabiy tanqidoy maqolalari esa adabiyot xazinasidagi bebaho gavharlardir. Qolaversa, Oybekdek oliyjanob, insonparvar, donishmand, kamtar, gul bargidagi shabnamdek pokiza insonlar oʻzlarining insoniy qiyofalari bilan ham yosh avlodaga namuna boʻlib qoloishlari lozim.

3.1. Taʼlim bosqichlari dastur va darsliklarida Oybek ijodi

9-sinfda Oybek hayoti va ijodi uchun 5soat ajratilgan. Ana shu 5 soatning 1-soatida oʻqituvchi Oybek hayoti toʻgʻrisida shunday shunday suhbat oilb lozimki, toki oʻquvchilarda bu buyuk adibga nisbatan katta hurmat tuygʻusi paydo boʻlsin. Ular Oybekning ”Navoiy” toʻgʻrisida roman yozishga maʼnaviy huquqi boʻlganiga yuz foiz ishonsinlar. Ularda yozuvchi bilan asar bosh qahramoni oʻrtasida katta yaqinlik va uygʻunlik boʻlishi va shu uygʻunlik tufayligina umrboqiy asarlarning maydoniga kelishi mumkinligiga amin boʻlsinlar

DARS REJASI.

Dars mavzusi:

Oybekning ”Qutlug‘ qon”romani .

Darsning maqsad
va vazifalari.

- a. Ta’limiy maqsad- o‘quvchilarga XX asr namoyondalari ijodidan saboq berish.
- b.Tarbiyaviy maqsad-o‘quvchilarni ma’naviy-ruhiy olamini shakllantirish, kamol toptirish, ularning idroki,tafakkurini o‘stirish, ezgulik va go‘zallikni ulug‘lashga o‘rgatish.
- c. Rivojlantiruvchi maqsad.- mustaqil ishlash va mantiqiy fikrlash malakalarinishakllantirish, o‘quvchilarni og‘zaki nutqini rivojlantirish va fikrlashini o‘stirish.

Dars turi:

Aralash.

Dars usuli:

An’anaviy.

Darsning jihozlanishi:

Plakat, bukletlar, ko‘rgazmali qurollar, albom, tarqatma materiallar va adabiyotlar:
9-sinf adabiyot darsligi va boshqa adabiyotlar.

Darsning borishi va mazmuni.

DARSNING XRANOLOGIK XARITASI.

1	Tashkiliy qism	
2	Uy vazifasini so‘rash	
3	O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.	
4	O‘tgan darsni yangi dars bilan bog‘lash.	
5	Yangi o‘quv materiallarini bayon qilish.	
6	Yangi o‘quv materialini mustahkamlashlash	
7	Uyga vazifa	

8	Dars yakuni.	
---	--------------	--

I.Tashkiliy qism.

a. salomlashish.

b. davomatni aniqlash.

c. o‘quvchilarning va xonaning darsga tayyorgarligini nazorat qilish.

II.Uy vazifasini so‘rash, o‘quvchilarni bilimlarini tekshirish:

III. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.


1. Sinf o‘quvchilari 3guruhga bo‘linib, bu guruhlariga Oybek deb yozilgan oq qog‘ozlar tarqatiladi. Sinf o‘quvchilari bunda uyga vazifa qilib berilgan Oybek hayoti va ijodiga oid bo‘lgan asarlar hamda asar qahramonlari nomlarini nomini yozadilar. Ushbu metod orqali o‘quvchilarni fanga qiziqishini oshirish maqsad qilib qo‘yiladi.

Shu bilan birga ularni darsga tayyorgarlik darajasi ham aniqlanadi.

O	L	T	I	N	V	O	D	I	Y	D	A	N	S	H	A	B	A	D	A	L	A	R
Y	O	R	M	A	T																	
B	O	L	A	L	I	K																
E	V	G	E	N	I	Y	O	N	I	G	I	N										
K	O	N	G	I	L	N	A	Y	L	A	R	I										

2. SANALAR SO‘ZLAGANDA.

Oybek ijodiga xos bo‘lgan sanalar o‘quvchilar tomonidan aniqlanadi.



3.TARQATMA MATERIALLAR.

1. Oybek kim u qayerda va qachon tug‘ilgan?
2.Oybek qanday asarlar yaratgan?
3. Oybek asarlari asosida ishlangan qanday telefilmlarni bilasiz?

4. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek qayerlarda faoliyat yuritdi?
5. Oybekning qaysi asarlari o'z nihoyasiga yetmay qolgan?
6. Oybekning tarjimonlik sohasidagi eng asosiy asar tarjimasi kimniki?

IV.O'tilgan darsni yangi dars bilan bog'lash.

O'zbek adabiyotining mangu asarlaridan biri Oybekning "Qutlug' qon" romanidir.

"Qutlug' qon" romanida tasvir etilgan voqealar sodir etilganda Oybek endigina 7 yoshga to'lib, 8 yoshga qadam qo'ygan edi. Bu bolanong xotirasida Toshkentdagi 1916-yil qo'zg'olonining ayrim nuqtalarigina saqlangan bo'lishi mumkin xolos. Shuning uchun ham aytish mumkinki, adib qo'zg'olon arafasidagi o'zbek xalqi hayotini, qolaversa, 1916-yil milliy ozodlik harakatini tasvir etishga kirishishdan avval tarixiy-memuar adabiyotni yaxshi o'rgangan, o'sha voqealarning tirik qatnashchilari bilan ko'p bor uchrashgan va ular xotiralari asosida o'z tasavvurini boyitgan.

Yuqoridagilardan aytish mumkinki, "Qutlug' qon" romani Oybek hayoti bilan bevosita bog'liq holda dunyoga kelgan.

V. Yangi o'quv mavzusini bayon qilish.

Oybekning "Qutlug' qon" romani 1937-yil oxirida yozilib boshlangan va 1938-yilda asosan tugallangan. Negaki, nafaqat Abdulla Qodiriy va Cho'lpon kabi ustoz yozuvchilar qamalgan, balki o'zi ham 1937-yil tegirmonidan omon qutilib qolgan, lekin Yozuvchilar uyushmasidan hamda Til va adabiyot institutidan haydalgan, har kuni qamalish xavfi ostida yashagan adibning ushbu romanga qo'l urushining o'zida bir jasorat bor. Bu jasorat manbaini hatto ilg'ab olishning o'zi ham mushkul. Adibning rafiqasi Zarifa Saidnosirovaning aytishicha, Oybek "Bu musibatli kunlar bugun bo'lmasa ertaga, bu yil bo'lmasa kelgusi yil o'tib ketadi. Shunda men dorilomon kunlarga bo'sh qo'l bilan borsam, uyat bo'ladi." degan andishadan kelib chiqib, har qanday qiyinchiliklarga qaramay, roman ustida ishlay boshlagan. Ammo roman tayyor bo'lgach, uni nashr etish oson kechmadi. Asar ikki marotaba muhokama etilib, muallifga rus xalqining milliy ozodlik harakatidagi

yetakchi rolini va Mirzakarimboy siymosidagi mahalliy boylarning yirtqich qiyofasini ko'rsatish vazifasi topshirildi. Davrning ana shu talabi bilan asarga Petrov obrazi kirib keldi. va Mirzakarimboy xarakteridagi salbiy xususiyatlar quyuqlashtirildi. Romanning ijodiy tarixidan bexabar va adabiyotdan uzoq bo'lgan kimsalar keyingi davrda xuddi shu masalada Oybek sha'niga ta'na toshlarini otib, romanning o'zbek adabiyoti taraqqiyoti tarixida tutgan buyuk o'rniga soya tashlamoqchi bo'ldilar.

O'qituvchi roman haqida muayyan tasavvur berish bilan birga darsda o'quvchilarning ham faol ishtirok etishlariga erishishi, shu maqsadda ularga,

1. "Kim "Qutlug' qon " romanini o'qigan?"
2. "Roman qaysi mavzuda yozilgan?"
3. "Romanning asosiy qahramonlaridan kimlarni bilasiz?"

singari savollar beriladi. Agar o'quvchilar asarning asosiy qahramoni sifatida Yo'lchi va Gulnor obrazlarini tilga olsalar va bu qahramonlar haqida ozmi-ko'pmi tasavvur bersalar, o'qituvchi yana savol berishda davom etib, "Oybekkacha yozilgan qaysi romanlarda Yo'lchi va Gulnor singari oddiy xalq vakillari qahramon sifatida tasvirlangan?"deb so'raladi.

Bu savolni berishdan maqsad shuki, mumtoz o'zbek adabiyotida ham, zamonaviy adabiyotimizda ham mehnatkash xalq vakillari kamdan-kam hollardagina, badiiy asarga, shu jumladan, romanga bosh qahramon sifatida tanlab olingan. Yo'lchi va Gulnorni o'z romaniga bosh qahramon sifatida olishi esa Oybekning navatorligi va zamonaviy realistik roman tabiatini to'g'ri tushunishi natijasidir.

Har qanday yirik epik asarda bo'lganidek, bu asarda ham ijobiy qahramonlar(Yo'lchi, Gulnor, Yo'lchining do'stlari)bilan birga salbiy qahramonlar(Mirzakarimboy, uning farzandlari, kuyovi va maslakdoshlari) harakat etadilar va ular o'rtasida ziddiyat sekin-asta olovlanib, oxiri alangaga aylanadi.

Ijobiy qahramonlar, adabiyotning yozilmagan qonun qoidasiga ko'ra, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi va ular obrazida oliyjanob insoniy xislatlar badiiy mujassamlanishi kerak. Agar shu nuqtai nazardan qaraganimizda, Yo'lchi

ham Gulnor ham o'z siymolarida katta ruhiy quvvatni, odan zotining barcha ezgu fazilatlarini eltadilar. Binobarin, ular kitobxonlar shuuriga go'zallik va ezgulik shu'lalarini sochishga qodir tom ma'nodagi ijobiy qahramonlardir. Romandagi salbiy qahramonlarga kelganimizda, ular bu ijobiy qahramonlarning, ilmiy til bilan aytsak, antipodlari. Oybekning bu qahramonlarni qarama-qarshi ikki qutbga ajratib tasvirlashi tasodifiy emas. Birinchidan, 1916-yil voqealari ana shu ziddiyat tufayli alanga olgan bo'lsa, ikkinchida, har qalay, asar 1937-1938-yillarda yozilgan. Bu davrning siyosiy -ijtimoiy hayotida kishilarni do'stlar va dushmanlarga ajratish va qirib tashlash tamoyili, adabiy hayotda esa sinfiylik va partiyaviylik mezonlari hukmronlik qilgan.

Oybekda tarixiy davrning ana shu talablari bilan hisoblashishdan o'zga chora yo'q edi. Shuning uchun ham u asar konfliktining ikki qarama-qarshi qutbini tashkil etgan kuchlar va bu kuchlarning vakillari obrazini quyuq bo'yoqlar bilan tasvirlashga majbur bo'lgan. Umumun, agar inqilobiy davr adabiyoti namumalariga nazar tashlasak, ularda dolg'ali davr tufayli hatto aka-ukalarning ikki qarama-qarshi lagerga ajralib ketishdek g'ayritabiiy voqealar tasviri ustuvorlik qilganini ko'ramiz.

Aslida "Qutlug' qon" romanoda ham shunga o'xshash manzara yo'q emas. Yo'lchi ona tomondan Mirzakarimboyga yaqin qarindosh bo'ladi. Ammo zamonlar zayli bilan, Birinchi jahon urushi arafasidagi tarixiy-ijtimoiy va iqtisodiy sharoit taqozosi bilan bu oila a'zolaridan biri o'ta kambag'allashgan bo'lsa, ikkinchisi boyib ketgan. Xullas, jamiyatdagi tabaqalanish jarayoni shu misolida aniq ko'rinadi.

Oybek Birinchi jahon urushi arafasidagi Turkiston xalqlari hayotining shu haqiqatidan kelib chiqqan holda qahramonlar obrazini tanlaydi, ularni turli qutblarga ajratadi va ular o'rtasidagi ziddiyatni asar konflikti darajasiga ko'taradi. Oybekning bu masalaga bunday yondashuvida vulgar sotsiologizmning ta'siri bor, deb bo'lmaydi.

Shu narsa muhimki, Oybek ma'lumoti jihatidan iqtisodchi bo'lgani uchun asarda tasvirlangan davr iqtisodiy taraqqiyot qonunlarini yaxshi bilgan va shu

qonunlardan kelib chiqqan holda qahramonlararo munosabatni belgilagan. U garchand tarixiy davr bilan Mirzakarimboy va uning muhitiga mansub kishilarning “reaksion mohiyati”ni ochishga alohida e’tibor bergan esa-da, ayni paytda ularga, birinchi navbatda Mirzakarimboyga xos ba’zi bir ijobiy jihatlarni ham chetlab o’tmagan.

Mirzakarimboy dastlab xuddi Yo’lchi onasidek oddiy kishi bo’lgan. U boshqalardan biror tarafi bilan ajralmagani uchun uni hatto Mirzakarim chittak deb ataganlar. Ana shu ko’rimsiz va kishilarning nazar e’tiboridan chetda yurgan kimsa tejamliligi, tadbirkorligi, o’zi yashayotgan davrning iqtisodiy taraqqiyot qonunlarini to’g’ri tushuna bilganliga tufayli kimsan Mirzakarimboyga-Toshkentdek shahri azimning baobro’ boylaridan biriga aylangan. Oybek realist yozuvchi sifatida masalaning ana shu nozik tarafini ham ko’rsatib bergan.

Kishilar qanday yo’l bilan boylik orttirganliklaridan qat’iy nazar, shu boylikning ozgina qismini nochor qo’ni-qo’shnilari, qarindosh urug’lariga atashlari kerak emasmi?! Axir odamzod hayvonatdan bir-biriga bo’lgan mehr-shavqati, beliga ezgulik va saxovat kamarini bog’laganligi bilan farqlanmaydimi?!

Afsuski ,aksar badavlat kishilar uchun shaxsiy manfaat birinchi o’rinda turadi. Xudbinlik, o’z boyligini orttirish yo’lida hatto egri ishlardan ham qaytmaslik, nochor kishilarga yordam berish o’rniga ular og’zidagi nasibani ham tortib olish katta davlat egalariga begona xususiyatlar emas. Mirzakarimboy xuddi shunday kishilardan. Shuning uchun ham hozirgi kunda uni ijobiy qahramon sifatida talqin etmoqchi bo’lgan kimsalarni haq deb bo’lmaydi.

Yo’lchidek ko’ngli va vijdoni toza, o’ta mehnatkash, kambag’alparvar va hojatbaror kishilarning jamiyat hayotida sezilarli rol o’ynashlari qiyin. Ammo ularsiz hayot daraxti quriydi. Jamiyat ularsiz shavqatsizlanib boradi. Yo’lchilar tufayli jamiyat qalbida toza qon aylanib turadi. Shuning uchun ham Oybek o’z asariga Yo’lchini – oddiy xalqning, mehnatkash xalqning bag’ri mehr-shavqat bilan to’la munosib bir vakilini bosh qahramon etib tanlagan.

Romanning boshqa epik asarlardan farqi shundaki, Oybek bu asarda Yo’lchi va Gulnor o’rtasidagi sof muhabbat tasvirini Mirzakarimboy muhiti bilan

chambarchas bog‘lagan holda olib boradi. Uning uchun bu ikki yosh o‘rtasidagi fojiali muhabbat qissasini tasvirlash emas, bu qissaning fojia bilan tugashi sabablarini yoritish muhimdir.

Ayrim kitobxonlar va adabiyotshunoslarga Oybek romantik kayfiyat bilan yo‘g‘rilgan yozuvchi bo‘lib tuyuladi. To‘g‘ri, romantik tasvir usuli Oybek ijodida she‘riyatida ham, nasrida ham doim tovlanib turadi. Lekin agar Oybek ijodiga teran nazar tashlasak, uning ijodida fojiaviy ohang ham bor. “Navoiy” romani bosh qahramonning o‘limi bilan tugaydi. “Quyosh qoraymas” romanining uchala bosh qahramoni urush maydonlarida halok bo‘ladilar. “Qutlug‘ qon” romani ham bosh qahramonlar- Yo‘lchi va Gulnor, Bektemir va uning do‘stlariga o‘xshash oddiy kishilarning, hatto Navoiylarning ham yashashlari og‘irligini biladi. Lekin shunga qaramay, yashash kerak, yomonlikka, yovuzlikka qarshi kurashish kerak. Zulm va zo‘ravonlik, razolat va jaholat ildizlarini sug‘urib tashlash kerak. Yo‘lchilar dunyoga shunday missia bilan keladilar. Oybek o‘z romanida ana shu g‘oyani ilgari surgan.

O‘qituvchi dars davomida o‘quvchilarga “Qutlug‘ qon” romanidan parcha emas balki ushbu romanning alohida nashriga murojaat qilsa va darsni shu nashr asosida tashkil etsa samarali bo‘ladi. Bu orqali o‘quvchilarga asarning asosiy g‘oyasini yoritib bera oladi.

VI. Yangi o‘quv materialini mustahkamlash.

Savollar:

1. Yo‘lchi va Gulnor obrazlari tasvirida qanday badiiy bo‘yoqlar sizning xotirangizda qoldi?
2. Qaysi manzara tasvirida Oybek mahorati yorqin ko‘rinadi?
3. Siz Yo‘lchi bo‘lganingizda uning qaysi xatti –harakatlarini takrorlagan va qaysi sa’y- harakatlaridan qochgan bo‘lardingiz?

4. Sizningcha, agar Yo‘lchi hayot bo‘lganida Mirzakarimboyning xohish irodasiga qarshi chiqqan bo‘larmidi?

VII. Uyga vazifa.

“Mening sevimli qahramonim ” mavzusida insho yozib kelish.

VIII.Dars yakuni.

Darsga aktiv qatnashgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Barcha o‘quvchilar baholanadi.

XULOSA

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek o'zbek adabiyotining yorqin namoyondasi.

Oybek hozirgi zamon o'zbek adabiy tiliga munosib hissa qo'shgan, o'ziga xos uslubga ega bo'lgan ijodkorlarimizdandir. U adabiyotimizni badiiy jihatdan mukammal, sermazmun asarlar bilan boyitish barobarida adabiy tilimizning sofliги va ravnaqi yo'lida ham beqiyos jonbozliklar ko'rsatgan. Shu jihatdan qaralganda atoqli so'z san'atkori Oybek o'zbek tilimiz rivoji, uning sofliги va xalqchilligi yo'lidagi faoliyati alohida o'rganishga loyiq deb o'ylaymiz. Adibning bir qancha asarlari, o'nlab maqolalari ham o'zbek tilining boyligini va uslubiy jihatdan keng qo'llanishini ko'rsatib turadi.

Xalqimiz hayotida ulkan o'zgarish yuz berib, mustaqilligimizni qo'lga kiritdik. Jumladan, badiiy adabiyotga bo'lgan munosabatlarda ham. Agar biz oldin adabiy asarga g'oyaviylik pozitsiyasidan, „sotsialistik realizm“ nuqtai nazaridan qaragan bo'lsak, bugun biz unga adabiyotning bosh maqsadi-badiiy estetik zavq va tarbiya berish darajasidan kelib chiqib munosabat bildirayapmiz.

Ushbu ishda o'z oldimizga Oybekning prozaik matnlarini lingvostilistik tahlil qilish maqsadini qo'yar ekanmiz, birinchi o'rinda e'tiborni estetik g'oyani shakllantiruvchi lisoniy vositalarni aniqlashga qaratdik. Badiiy asarni asosini tashkil qiluvchi estetik g'oya va shakl mazmun doiralari uyg'unligida shakllanadi. Bunda til vositalari tanlovi asosiy o'rinni egallaydi. Badiiy matnning o'zga funksional uslublardan, matnlardan farqi shundaki, unda til birliklari nafaqat axborot uzatish, balki obrazli tasvir yaratish vositasini ham o'taydi.

Obrazli so'z qo'llash o'ziga xos usul bo'lib, bu usul individual xususiyatga ega.

Shu sababli biz tadqiqot jarayonida e'tiborni Oybek prozaik asarlari matnida individual uslubning aks topgan ko'rsatkichlarini, yozuvchining shaxsiy lisoniy qobiliyatining badiiy tasvir vaziyati, tasvirlanayotgan voqelikning ijtimoiy muhit bilan bog'liq tomonlarini aniqlashga harakat qildik.

Tahlil Oybek asarlari tilini umumfilologik yoʻnalishda „shaxs va lisoniy faoliyat“, „til va voqeylik“ yoʻnalishlari nuqtai nazaridan oʻrganishda muhim oʻrin tutadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishidan asosiy maqsad Oybek ijodiy uslubining oʻziga xos qirralari til materiali asosida atroflicha tahlil etiladi. Bir ijodkor qalamiga mansub matn asosida, bunday tahlillarning mukammalligiga erishish qiyin albatta. Ana shunday holatlarda Oybek badiiy matni uning zamondoshlari ijodi namunalari bilan qiyoslanadi. Qolaversa, badiiy asar tili va uslubini oʻrganishda taraqqiy etgan tilshunosliklar tajribasidan shu narsa maʼlumki, bu tahlildagi kuzatishlar leksikografik tadqiqotlarga tayanilgan holda olib borilsagina ularning bir qadar mukammal boʻlishiga daʼvo qilish mumkin.

Umuman xulosa qilib aytganda, adib Oybek oʻzining asarlarida turli xil vositalardan, xususan, jonli xalq tili imkoniyatlaridan keng foydalangan. Shu bilan leksik vositalar: iboralar, tasviriy vosita, turgʻun birikmalar kabi leksik birliklar uning ijodidagi asarlar tilini qamrab olgandir. Hozirda Oybek qoʻllagan koʻplab leksik birliklar jonli xalq tilining rivoji uchun ham katta hissa qoʻshib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 686 b.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -174b.
3. Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent, 1999- yil.
4. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, 1997 yil 29 avgust.
5. Umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent, 1999- yil.
6. Abdullayeva D.T. Mazmuniy sub'ekt va uning o'zbek tilida ifodalanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. - T., 2001. – 25 b.
7. Abdurahmonov G'. Adabiy asar tilini o'rganish haqida // O'zbek tilini o'qitish metodikasi masalalari, Toshkent, Fan, 1966. 4 – 11 – betlar.
8. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi. –Toshkent, 1964.
9. Abdurahmonov G'. O'zbek tili grammatikasi (Sintaksis). –Toshkent: O'qituvchi, 1996.
10. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
11. Abdurahmonov Sh.A. O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar, Filol.fanlari nom... diss. – Toshkent, 1997. – 24 b.
12. Abuzalova M.Q. O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qolipi va uning nutqda voqyelanishi: Filol. fanlari nomzodi. dis. ... avtoref. – T., 1994. – 24 b.
13. Ashirboyev S. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning ma'no va tarkibiy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri ... dis. – T., 1990. – 330 b.
14. Boymirzayeva S.O'. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi, filol. fanlari nom...dis. Avtoref.-Samarqand, 2004,-23 b.
15. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007. - 156 b.
16. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. - 160 b.

- 17.Karimov S.A., Jo‘rayev T.T. O‘zbek tili uslubiyati va nutq madaniyati (Bibliografik ko‘rsatkich).-Samarqand: SamDU nashri, 2001.-62 b.
- 18.Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. – Toshkent: Fan, 1989.-112 b.
- 19.Mahmudov N.M. Oybek she‘riyatidagi o‘xshatishlarning lingvopoetikasi // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985.- №6. 48-51 betlar.
- 20.Samadov Q. Oybekning til mahorati. – T.: Fan, 1981.-104 b.
- 21.Samadov Q. O‘zbek tili uslubiyati (badiiy uslub). –T.: O‘qituvchi, 1991.-56 b.
- 22.Maxmudov N.M. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – T.: O‘qituvchi, 1984. -156 b.
- 23.Maxmudov N.M. Funktsional va nofunktsional to‘ldiruvchilar xaqida// O‘zbek tili va adabiyoti. – 1981. - №1. – B.43-47.
- 24.Mahmudov N. Va boshq. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T.,1991.
- 25.Mahmudov N. Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). T.: O‘qituvchi, 1995.
- 26.Mahmudov N. Kesimning gapdagi maqomi. //O‘zbek tili va adabiyoti. -T., 2009 №1.B. 44-55
- 27.Nurmonov A. Gap haqida sintaktik nazariyalar. -T., 1988.
- 28.Rixsiyeva G. Metafora haqidagi diss. Avtoreferati.
29. Qurbonova M. O‘zbek tilshunosligida formal-funksional yondashuv va soda gap qurilishining talqini: Filol. fanlari d-ri dis... avtoref. - T., 2001. – 48 b.
- 30.G‘ulomov A. Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -T.: O‘qituvchi, 1987.
- 31.G‘ulomov A. Sodda gap. -T., 1955.
- 32.O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. /Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. № 1, 2, 3, 4,5 -T., 2007-2011.
- 33.Hozirgi o‘zbek adabiy tili. II t. –Toshkent: Fan, 1966. 424b.
- 34.<http://www.edu.uz/>
- 35.<http://ziyo.edu.uz/>

